

KP

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 20-iyul, seshanba № 29 (9354)

Xalq ziyolilari gazetasi

Bizga maktab-internatlar kerak!

3-bet

Qizingiz o'quvchi!
Unga sarpo emas, ta'lim lozim

2-bet

Qa4on savothonlkga erwamz?!

6-bet

Ichimdagi isyonidan qo'choa olmadim!

2-bet

Shov-shuv emas, ta'lim sifatini ko'taraylik!

3-bet

Bu yil tibbiy ko'rik tekinmi?

3-bet

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Avtosalonga borib kreditga moshina olmoqchi edim, oyligim yetmadi. To'g'ri, bolalarimga halol luqma yedirypman, barakasini bersin! Ammo baribir odamga alam qilarkan. Mao-shimiz hechqursa 5 million bo'lganida ham mayli edi.

Sunnatilla KOMILOV



Biz baho qo'yishda saxiy bo'lib ketyapmiz. Ikkichiga uch... To'rtchiga besh...

Shundan keyin o'quvchi ham o'ziga talab qo'yishdan chekina boshlaydi. Ikki-uchta xato qilsam ham baribir "besh olaman" deydi. Mana, o'quvchi nega o'qimay qo'yadi. Aqlli ota-onalar qattiqqo'l, bahoga "xasis" o'qituvchini qadrlaydi. Chunki bunday o'qituvchining qo'lida o'qigan "uchchi" o'quvchi, "saxiy" o'qituvchi o'qitgan "besh"chidan ko'ra bilimdonroq bo'lishini bilishadi.

Norchuchuk NORMURODOVA



Ta'limga pul aralashdimi, poraxo'rlik avj oladi. Sifat buziladi. To'rt qator she'rni ifodali ayta olmaydigan, maktab o'quv rejasida o'qitiladigan tayanch bilimlarni ham bilmaydiganlar universitetda o'qishyapti. Ota-onasining puli yetganlar bilimsiz bo'lsa-da superkontrakt bilan talaba bo'lyapti. Ammo fundament yo'q. 4 yilda 11 yillik ta'limni o'zlashtirishiga ishonasizmi?

Karimjon ERGASHEV

O'qituvchi minbari

Ichimdagi isyondan qocha olmadim!

Ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchiga nisbat berilganda tez-tez dilni xira qiluvchi video, audio shaklidagi murojaatlar, xabarlar hamda tasvirlarga duch kelyapmiz. Kundan kunga o'qituvchiga munosabat kim bo'lishidan qat'i nazar tarmoqda faol bo'lgan kishilarning dolzarb mavzusiga aylanib borayotganiga guvohsiz. Bunday chiqishlar kishini ranjityapti, to'g'rirog'i, keyinni o'ylashdan cho'chityapti. Nega, bilasizmi? O'qituvchi xalq bilan hamnafas yashaydi. Xalq farzandining taqdiri bilan bog'liq har qanday negativ chiqishni to'g'ri talqin qilavermaydi! Bu esa, o'qituvchi mavqeyining ko'tarilib borilishini ko'rish u yoqda tursin, orzu qilishga ham qo'rqitadi. Gap nimadaligini payqadingiz.

Kim haq, kim nohaq! Buni tahlil qilishdan yiroqman. Chunki hamma o'zi uchun haq, o'z qarichi bilan so'z aytadi.

O'z-o'zini ovutaman: "O'qituvchi hayotni tanitadi. O'zini Shaxs deb bilganlarning hayotni tanitganlaridan tonishi - o'zini, o'zligini tanimasligidan, tan olmasligidan dalolatdir".

Ammo... Aynan sizga va bizga tegishli bo'lgan munosabatga e'tiborsiz bo'lish qiyin. Shunchaki chetlab o'tish undan-da mushkul.

Davlatimizda ta'lim-tarbiya sohasidagi olib borilayotgan islohotlar tahsinga loyiq! Eng birinchi navbatda, ko'p bora takrorlansa-da, aytishim joizki, qora mehnatdan, qog'ozbozlikdan qutqarildi. Imkon darajada, sekinlik bilan bo'lsa ham yoshi ulug' ustozlarimizning bir vaqtlar qilgan orzulari ushalyapti. Buning hisobiga ta'lim-tarbiya borasidagi haqli talablar ko'paymoqda. Ular haq!

Demak, hammasi joyida, hammasi yaxshi! Unda nega hovurim bosilmayapti?!

Ortimga qaraymi, yo oldinga? Yo ikkalasiga ham qaramasdan, turtilib ketmasdan yo'limda davom etaymi?

Ho'l-u quruq yonyapti, axir! Ichim yonyapti! O'z-o'zini bilan murosasiz isyon olib bormoqdaman!

Azizim, Men! Tilga olinayotganlarning birisiz. Himoya qilaysizmi o'zingizni? Yoki ko'pchilikdek sukut saqlashni afzal bildingizmi? O'quvchilikdan oliy o'quv yurtiga qabul qilindigiz. Mutaxassis bo'lay deb to'rt yil o'qidingiz. Qo'lingizdan ish kelish-kelmasligi inobatga

olindimi, yoki yo'q, chiroyli diplomga ega bo'ldingiz. Diplomgingiz bormi, demak, o'qituvchisiz. Sizdan kim so'raydi, bolalarni o'qita olasizmi, tajribangiz bormi deb? Ha, aytganday, boshqa sohalardagi kabi, masalan, tibbiyot, iqtisodiyot, arxitektura, temir yo'l mutaxassislari, boringki, yuzlab sohalar kabi o'qituvchilikda dastlab sinov muddati o'talmasa, birinchi kundanoq 50-60 nafar o'quvchi qurshovida qolsa... Yana javobingiz tayyor-a. Nima emish, o'qib yurganimga amaliyotni o'taganman. Qanday amaliyot?! O'zingizni aldamang! Amaliyotda nima o'rgandingiz? Biriktirilgan rahbar o'quvchilar bilan ishlashni qanday o'rgatdi? Axir, uning bolalar turganda siz bilan bittalab ta'lim-tarbiyaga doir qo'llayotgan metodlarini o'rtoqlashishga vaqti bormi? Ta'lim-tarbiyada qat'iy qoliqli metod bormi? Lahzada o'zgaruvchanlik, moslashuvchanlik ko'nikmasiga ega bo'lishingiz, holatdan kelib chiqib mos keluvchi metoddan foydalanishingiz kerak. Ayniqsa, tarbiyada A variant ish bermasa, B ni qo'llaydi, B ham ish bermasa va hokazo. Bularni siz, huv o'zingiz ta'kidlagandek, oliy ta'limda o'rganib kelishingiz zarur edi. Hech "xo'p" demas ekansiz-da: "Bizda metodika o'tilgan". Kim? Dotsent yo professor? Hoy baraka topgur, amaliyotga kelganingizda ikkalasi ham ta'lim oluvchi bo'lsa-da, o'quvchi va talaba o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezmandingizmi? Metodika fanlarini amaliyotchi o'qituvchi o'qitmasa, bu yog'iga kim kafolat beradi? Yaqinda ishga qabul qilingan bir hamkasbingiz ham tan oldi-ku,

to'rt yilda o'rganganlarim asqatmayapti, bilimimni oshiribman-u, uni amaliyotda qo'llay olmayapman, o'zgalarga tarqatish usullarini bilmayapman. Ovutdingiz: "O'rganib ketasiz, biz ham edik sizdek, sabr qilsangiz, kurashlardan chekinmasangiz, siz ham bo'lasiz bizdek". Ammo dilingizdan o'tganini o'zingiz bildingiz: "Bu yo'lga tushib olguncha, qo'lida nechta avlod "tajriba quyoncha"sini o'taydi ekan". Hozir har bir maktabga ijodkor o'quvchi va o'qituvchilarni kashf etish uchun oliy ta'limdan, yozuvchilar va jurnalistlar uyushmasidan targ'ibotchi yuborilyapti. Ijodkorlik qirralari namoyon bo'lsin deb. Bu ham yaxshilikka, albatta. Hoy Men! Siz ham shu bahonada taklif tashlasangiz-chi, zora bu ham yaxshilikka xizmat qilsa!

Xayriyat-ey, qo'lingizga qog'oz-qalam oldingiz, qani kimdan himoya istab o'zingizni yoqlaysiz (ha, bildim "oshni" pishirgan oshpazga xat).

"Hurmatli OTM mas'ullari hammaga ma'lum, sizlar faqat bilimli abituriyentlarni qabul qilasiz. Sizlarda o'qish uchun ular qancha vaqt tayyorlanadi, maktab darsliklaridan tashqari, yana ko'plab to'plamlarni yodlaydi. Miyasi g'ij-g'ij bilimga to'yingan o'quvchigagina talaba bo'lish nasib etadi. Bularni inkor etmaymiz, etolmaymiz. Lekin biz bilmagan qanday sirlar borki, ba'zilar tomonidan berilgan ayrim savollarga javob berolmay izza bo'lyapmiz. Masalan, rus tili o'qituvchi o'zbek tilida dars o'tarmish, ingliz tili o'qituvchisi inglizcha gaplasha olmasmish, matematika o'quvchisi inglizcha gaplasha olmasmish, geografiya o'qituvchisi davlatlarning qayerda joylashganini bilmasmish, ona tilini gapirmasa ham bo'ladi emish. Nega? Sizlar abituriyentlarning saralarini qabul qilib o'qitdingiz-ku. Maktabdagi kabi muassasangizda o'qish majburiy emas-ku. Tanlanib-tanlanib, chertilib-chertilib olinadigan o'quvchimiz, oliy ta'lim diplomiga ega o'quvchimiz maktabda ishlab boshlagacha qanday bilimsiz bo'lishi mumkin? OTMga qabul qilindi degani, qanday tahsil olishidan qat'i nazar bitiradi deganimi? Diplom bergan kadrlaringizga negativ fikr berilayotganda siz ham jim turmang. Axir, bizni sizlar "ishlab chiqaryapsizlar"! Faqat iltimos, aslo quyidan shunday kela-

di demang, yo'qsa tanlovlaringiz o'rinsiz, qiymatsiz bo'lib qoladi.

Keling, arzimasa-da, oddiygina o'qituvchining soddagina taklifiga bir ko'z yugurtirib chiqing.

1. Aynan o'qituvchilik sohasini tanlaganlar uchun kirish imtihonini isloh qiling.

2. "Buyurtmachi"(maktab) va "ishlab chiqaruvchi"(OTM) o'rtasiga katta ko'priq quring. O'qitish dasturlarini bir-biriga chambarchas bog'lang. Balki, shunda to'rt yilda olgan zaruriy bilimlari bir umrga asqat, balki shunda rad etib bo'lmaydigan iddaolardan qutulalmiz.

3. Pedagogikani metodikasiz tasavvur qilib bo'lmas ekan, talabalarimiz diplom olgach, sinov muddatini o'tamas ekan, shunga yechim toping, 1-kursligidanoq fanlarni o'qitishni mukammal o'rgansin. Xalq ta'limi targ'ibotchilik uchun qanday qilib kadr so'rayotgan bo'lsa, siz ham Xalq ta'limidan ko'p yillik tajribaga ega amaliyotchi o'qituvchi so'rang. Hech bo'lmasa, haftada bir marta ish haqi evaziga (haq berilgandagina haqiqiy ish bo'ladi) tajribalarini o'rtoqlashsin, talabalar bilan individual ishlasin. Amaliyotchi psixologlar ishlasin.

Hozircha qog'ozlarda, xayollarda qolib ketishini bilsam ham OTMga dardim aytib bo'shshdim. Ichimdagi isyon biroz chekingandek. Chunki dilimdan boshqa so'z o'tmayapti. Boshqa so'zlar, ya'ni o'qituvchining faoliyati davomida uchraydigan haqliklar va nohaqliklar haqida, yashash tarzining kasbiy hayotiga daxldorligi, yaxshi yashashga haqli jihatlar haqida ijtimoiy tarmoqlarda, matbuotlarda ko'p va xo'p aytili, chiqishlar qilindi. Ammo baribir savollariga javob topa olmadim.

Topa olganim va bilganim: har qanday yondashuv bir tomonlami bo'lmasligi kerak. Muammolar tuguni ildizlarni har tomonga olib boradi. Lekin bizdagi asl muammo, muammoni topamiz-u, yechim axtarmaymiz. Bilamizki, yechimning yo'li uzoq va baland: qo'l yetmas qoyalarga olib boradi. Qoyalari bilan to'qnashuvga cho'chiymiz.

Endi ham bir so'z deng. Faqat tirik so'z bo'lsin! Chopib tashlasalar-da, ildizidan qayta tiriluvchi so'z bo'lsin!

Dildor NURMUHAMEDOVA,
o'qituvchi

Qizingiz o'quvchi! Unga sarpo emas, ta'lim lozim

11-sinf qizlari "Balli qizlar" tanlovini o'tkazishdi. Tanlov qatnashuvchilari sahna ko'rinishi orqali jamiyatimizdagi og'riqli muammoni olib chiqishdi. Ya'ni qizlarning erta turmushga berilishi, o'qitmay, uzatib yuborishlari voqealar tarzida tanqid qilingan edi. Hay'at a'zosi sifatida ushba sahna ko'rinishini baholash chog'ida bir yosh o'qituvchi yigit bilan bahslashib qoldik:

— E bu bo'lmagan gaplar hammasi. O'qimasa, o'qimay qo'yaveradi-da, shu ham muammo bo'libdimi? Turmushga chiqqandan keyin eri boqib oladi, — dedi u.

— Kechirasiz ukam, siz achagina kalta o'ylayapsiz, — dedim. — Hech o'ylab ko'rganmisiz, o'qigan qiz bilan o'qimagan qizlarning qanday farqi bor? O'qigan qizlarning dunyoqarashi keng bo'ladi, boqimanda bo'lmaydi, oq-qorani taniydi, kelajakda esa farzandlarini ham o'qitishga harakat qiladi. Mana hozir qanchadan qancha oilalar yosh qizlarni kelin qilib olib, bolaligiga borib biror ishni eplolmasa yoki ozgina mazasi bo'lmay qolsa, onasini nikiga jo'natib yuboryapti...

Xullas, mening fikrlaringga yosh hamkasbim qo'shil-madi.

Shu voqeaga ham 7 yil bo'ldi. O'sha hamkasbim o'qimagan zigga uylandi. Taqdir taqozosi bilan o'zi ham ayolini kasal bo'lganida qayinotasinikiga davolangani yo'natdi. Afsuski, o'sib kelayotgan yosh yigitlarga mard, saxiy, oliyanob, oriyatli bo'lishni o'rgatib, yigillari davomida xalqimiz ongida shakllangan illatlarga qarshi kurashish o'rni o'limya ma'lumotli, ziyoli insonlarimizning o'zi ham shu oqim bo'ylab zuzayotgani achinarli.

Shuning uchun ham qizlarni 10-sinfni bitirmay turib unashirib qo'yish, o'qitmay turmushga berish kabi hol-lar barham topmayapti. Maktab rahbariyati ota-onaga

qarshi chiqa, farzandim pasport olgan, xohlaganinni qilaman, deyidiganlarning nechtasini ko'rdim. 10-sinfda-yoq unashirib qo'yilgan qizlarning xayoliga o'qish, bilim olish kiradimi?! Axir ota-ona shu qizlari dunyoga kelganida baxtli bo'lishini, hayotda o'z yo'lini qiynalmay topishini, doimo kulib yashashini orzu qilganammi. Shunday ekan nima uchun ularning taqdirini hal qilayotganda kaltabinlikka yo'l qo'yamiz? Axir erta turmushga chiqib ketayotgan qizlarning qanchasi yangi hayotga ko'nikolmay qiynalayotganini, adolatsizlik, xo'rliklarga duch kelib, oxir-oqibat joniga qasd qilayotganini ko'rmayapmizmi?!

Yoshgina farzandlarini unashirib qo'yib, topgan pullarini quda-andachilikka sarflayotgan ayollarimiz undan ko'ra bu mablag'ni qizlarni o'qitish yoki hunarli qilishga sarflasalar o'ziga ishongan, hayotini to'g'ri yo'lga qo'ya oladigan teran fikrli qizlarimiz ko'payardi, ham boqimanda va ta'magirlik nigohi bilan kelinning ota-onasidan manfaat kutadigan johil qaynona-qaynotalar, erlar soni kamaygan bo'lardi. Agar ota-ona farzandini o'ylasa, uni azobga tashlamaydi, o'qitib, jamiyatda o'z o'mini topishiga yordam beradi. Zero, dunyoga hali bola nigohi bilan qarayotgan qizingizga sarpodan ham muhim narsa ta'limdir!

Umrinisa ERGASHEVA,
Pop tumanidagi
49-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Shov-shuv emas, ta'lim sifatini ko'taraylik!

Matbuot orqali yangi avlod darsliklari, Milliy o'quv dasturi, ta'limga bo'lgan kreativ yondoshuv haqidagi gaplarni ko'p eshityapmiz. Tashqaridan qarasangiz juda ham yaxshi, dildagi, hozirgi kunning eng dolzarb, kerakli gaplari.

Lekin, bundan bir necha o'n yillar avval biz "Kadrdar tayyorlash milliy Dasturi"ni yaratib, Komil insonni voyaga yetkazishni maqsad qilib olgan edik. Shu haqda ancha shov-shuv qildik. Lekin u ishlamadi. Komil inson tugul, aksariyat holda savodli yozishni, teran fikrlashni bilmaydigan yoshlarni yetishtirdik. Vaholanki, ushbu dasturda ta'lim mazmuniga oid o'quvchilarning ko'proq bilim olishlari uchun qo'shimcha adabiyotlar ishlab chiqish vazifasi topshirilgan edi. Davlat ta'lim standartlari hali kirib kelmasdan burun, ta'lim kvalimetriyasining ilmiy asosi ishlab chiqilmay turib, ta'limga reyting tizimini olib kirdik. O'sha vaqtda o'qituvchilar ko'ladan kalkulyator tushmaydigan buxgalterlarga aylanib qolgan edi. Ta'lim berish va uning sifati orqaga yuz tuban ag'anab tushdi. Ilmiy asosga ega bo'lmay turib, ijtimoiy, madaniy muhit ahvoli, pedagogik-psixologik va moddiy-texnik sharoitlar o'rganilmay turib, Davlat ta'lim standartlarini yaratdik. Bu ham ishlamadi (DTS mavzusi alohida og'riqli mavzu).

"Darsliklarning yangi avlodini yaratish" bo'yicha tanlovlar o'tkazishni boshladik, bu hozirgacha davom etib kelyapti. Uchinchi avlod to'liqini(maktab bitiruvchilari) o'tsa hamki, yangi avlod darsliklari haqida hanzu gapiramiz.

30 yildan beri ana shunday "dolzarb" harakatlar ichida yuribmiz. Oxir-oqibat bugunga kelib, aksariyat yoshlarimizning fikr sayozligi, so'ziga va qilayotgan ishi nimaligiga javob berolmasligi, bilimsizligi, mohiyatni anglay bilmasligi, mas'uliyatni his qilmasligi, oq-qorani ajrata bilmasligi, vatanparvarlik tuyg'ulari yetishmasligi,

savodsizligi odamni xavotirga soladi.

Oxirgi yillarda ta'limda yana o'zgarishlar qilishga harakat qilinyapti. Har doimgidek ilg'or g'oyalar, yuksak maqsadlar qo'yilayapti. Lekin, bundan taxminan yigirma yillar avval ham ana shunday ta'limda islohotlar bo'lgan va chet ellik mutaxassislar jalb etilgan. Ular nima qilishdi? Bizdan eng kerakli progressiv g'oyalarni, ularni qo'llash metodlarini yaxshilab bilib olishdi... va bizda qo'llash uchun emas o'zlariga sotish uchun olib ketishdi. Bizda g'oyalari oyoq ostida uvol bo'lib yotadi, chet elda esa har bir g'oya uchun pul to'lashadi.

Hozir kreativ yondoshuv degan so'z "moda" bo'ldi. Ona tili grammatikasini yangicha kreativ o'qitish va yana ancha rejalar ustida gap ketyapti. Lekin, bu gaplar, g'oyalar xuddi "Amerika kashf qilindi" degandek yangilik emas. Bundan yigirma yillar avval Rohatoy Safarova til o'qitish ta'limini modernizatsiyalash yuzasidan doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan edi. Ushbu dissertatsiya ishida boshlang'ich ta'lim davrida til qonuniyatlarining qoidasini o'rgatmay, shu qoidalar asosida nutqni rivojlantirish g'oyasi ilgari surilgan edi. Qozoqboyo Yo'ldoshev va yana boshqa olimlar eski metodni ulqotirib, yangi progressiv metodlarni, ya'ni bolaning miyasini qimirlatadigan, o'stiradigan, fikr qilishga o'rgatadigan g'oyalarni olib kirishgan edi. Ya'ni biz hozirda "kreativ" deb atayotgan metodni olib kirishgan. Bizda g'oyalarni amalga oshirmaydigan ulkan byurokratik mashina borligi, monopoliya, korrupsiya borligi tufayli yigirma yil avval qilinishi kerak bo'lgan ishlar shu vaqtga-

cha amalga oshmadi, islohotlar ishlamadi. Yigirma, o'ttiz yil avval qanday bo'lsak, hozir ham shundaymiz. Nima uchun? Chunki ong o'zgargani yo'q.

Bundan 15 yillar avval "Yangi avlod darsliklari" tanlovida hozirgi zamon tili bilan aytiladigan "kreativ usuldagi" darslik emas, shu vaqtgacha o'qitib kelinayotgan 4-sinf "O'qish kitobi" g'olib bo'lganida shaxsan men "kreativ fikrlovchi" mutaxassis sifatida o'sha vaqtdagi Xalq talimi vaziriga "agar hozir progressiv usulda tayyorlangan yangi avlod darsligi o'tmay qolib ketsa, bundan keyin bizda darslik tayyorlash nima ekanligini bilmay, xuddi shunday eski usuldagi darsliklar yaratilaveradi, deb murojaat qilgandim. Hech kim e'tibor bergani yo'q. Mana shu vaqtgacha darslik yaratishda eski metod davom etib kelyapti. Agar biz G'arb davlatlari pedagogikasidagi mavjud ta'limni vosita sifatida berishni o'rganganimizda, ahvol boshqacha bo'lar edi. Vaholanki, tasavvuf ta'limotiga ko'ra "fan vositadan maqsadga aylangan ekan, u haqiqat yuziga parda tortadi".

Hozir hech qanday ilmiy asosga ega bo'lmay turib, maktablarda 1-sinfdan 11 sinfgacha mo'ljallangan "Tarbiya" darsliklarining kiritilishi va bu darsliklarning pedagogik, psixologik va falsafiy jihatdan sifatsiz taqdim etilgani odamni juda xavotirga soladi. G'oya yaxshi, lekin shu g'oyani amalga oshirishda pedagogik va psixologik xatolarga yo'l qo'yilgan. Bu darslikning metodologiyasi materialistik dunyoqarashdan kelib chiqib, bolaga har doimgidek abstrakt ravishda nazariy ta'lim berilgan. Materialistik dunyoqarash bilan insonga to'g'ri yondoshib bo'lmaydi, ayniqsa, yosh bolaga.

Bir teleko'rsatuvda Milliy o'quv dasturini tayyorlashga jalb etilgan chet ellik ekspertlar bilan teleko'priq orqali bo'lgan muloqot shaxsan mening g'ururimga teg-

di, juda qattiq achindim. Bizda bittigan pedagogika ilmiy tekshirish instituti bor, unda pedagog olimlar ishlashadi. Vaholanki, ta'limning miyasi Pedagogika ilmiy tekshirish instituti, bajaruvchi, amalga oshiruvchi esa Respublika ta'lim markazi bo'lishi kerak edi.

Sal kam ikki yil avval mutaxassis sifatida Xalq ta'limi vazirligiga Davlat ta'lim standartlarining noo'rin, nomaqbul tayyorlangani, ilmiy asossizligi uni qanday taqdim etish haqida takliflarimni berdim. Lekin har doimgidek, bergan fikrlarim hech kimni qiziqitirmadi. Shu takliflar asosida "Boshlang'ich ta'lim davrida nutq o'stirish va o'quvchilarni rivojlantirish (tabiiy ilmiy bilimlar, o'qish, ona tili) ta'limi mazmuni bo'yicha Tayanch o'quv dasturi" loyihasini tayyorlagan edim. Loyihaning mazmun-mohiyati hech kimni qiziqitirmadi. Vaholanki, RTM tomonidan chet el mutaxassislari bilan hamkorlikda tayyorlangan Milliy o'quv dasturidan farqli o'laroq, men tomonidan taqdim etilgan Dasturda quruq gap emas, ta'limning eng kerakli, asosi bo'lgan tayanch sohalar aniqlanib, har bir ta'lim zahirida ijtimoiy madaniyatni qay tarzda egallab borish va vorislik singdirilishi, ta'limda funksional to'laonlikka erishishning amaliy o'qitishlari aniq, ravshan ko'rsatib berilgan edi. Kelajakda turli xildagi o'quv dasturlari va saviyasi yuqori bo'ladigan darsliklar yaratish uchun dasturilamal bo'lar edi.

Biz yetuk yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilgan ekanmiz, ta'limga yondoshuvda metodologiyani — ongni o'zgartirishimiz kerak. Ta'limni to'g'ri o'qitish emas, vosita sifatida berish metodlarini ishlab chiqish ayni zarurat. Bo'lmasa, yana islohotlar deysinib turaveradi, darsliklarning sifati esa o'zgar olmaydi.

Yulduz AMIRJONOVA,
mustaqil ekspert

O'qituvchi minbari

Bizga maktab-internatlar kerak!

Bugun ilm-fan shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir zamonda yoshlardan ko'plab zamonaviy bilim va ko'nikmalar talab qilinyapti. Shunga muvofiq xalq ta'limi sohasidagi o'zgarishlar, yangilanishlar yoshlarimizning dunyo talablari darajasida bilim olishlariga qaratilgani maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

Ayniqsa, joylarda Prezident va Ijod, Temurbeklar maktablari tashkil qilingani, mazkur ilm dargohlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning erishayotgan yutuqlari barchani quvontiradi. Bizning Qoraqalpog'iston Respublikamizda ham bitta Prezident maktabi va Ibroym Yusupov nomidagi ijod maktabi ochildi, ammo bu maktablar bor yo'g'i 20-25 nafardan o'quvchi qabul qiladi. Bu esa butun Qoraqalpog'iston uchun oz. Bunday maktablar faqat poytaxt yoki shaharlarda emas, barcha hududlarda teng taqsimlangan holda tashkil qilinishi joiz deb o'ylayman. Axir ta'limga har qancha sarmoya kirtsak, buning natijasi bo'ladi.

Afsuski, Qoraqalpog'istonda ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari soni hozirda kamayib ketgan. Respublikamiz bo'yicha faqatgina Elilikal'a tumanida 13-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab internati faoliyat yuritayapti. To'g'ri, ixtisoslashtirilgan maktablar bor, ammo mening fikrimcha, ixtisoslashtirilgan maktab internatlari sharoiti o'quvchilarni olimpiadalarga

tayyorlashda samaraliroq. Sababi, bizda hudud katta. Ota-onalar farzandlarini iqtidoriga qarab IDUMda o'qitishni xohlasa-da yo'lining olisligi, har kuni maktabga olib borish va olib ketish masalasida qiyinchilikka duch kelishadi. Bu esa ko'plab iqtidorli o'quvchilarning yuzaga chiqmay qolishiga sabab bo'ladi. Agar shu IDUMlarda yotoqxonalari tashkil qilinganida, ehtimol, bizning ham tumanlarimizdan ko'plab xalqaro olimpiadalar g'oliblari chiqqan bo'lar edi.

Aytaylik, Xorazm, Buxoro, Andijon viloyatlari bilan solishtirganda, haqiqatan ham Qoraqalpog'istonda ixtisoslashtirilgan maktab internatlari soni ozligi ma'lum bo'ladi. Ammo bu Qoraqalpog'istonda iqtidorli bolalar kam degani emas, ular ko'p va barchalari qulay sharoitda, chuqurlashtirilgan tarzda fanlarni o'rganib, o'zlarini namoyon qilishga haqli.

Sanobar XO'JAMUROTOVA,
Amudaryo tumanidagi
40-maktab direktori

Har yili yangi o'quv yili oldidan maktab o'qituvchilari tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart. Ammo xizmat doimo pullik va bu o'qituvchining hisobidan.

Bu yil tibbiy ko'rik tekinmi?

"Hech bo'lmasa o'qituvchining o'quv yili oldidan tibbiy ko'rikdan o'tishi uchun imtiyoz berilsa bo'lmasmikin", deb hamkasblarim o'ksinib gapirganlarining ko'p guvohi bo'lganman. Ma'lumki, 2020-yil sentabr oyida Prezident tomonidan imzolangan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksida davlat ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari uchun davlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy ko'rikdan o'tishlarida imtiyozlar belgilab qo'yilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 5-bob (Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi), 45-moddada (14-bandi)da "davlat sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish (davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari uchun)" huquqi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 214-moddasi orqali ham o'qituvchilarning tibbiy ko'rikdan bepul o'tish imtiyozini "Tibbiy ko'riklardan o'tilishi munosabati bilan xodimlar chiqimdor bo'lmaydilar", deb belgilangan.

Yuqoridagi qonuniy asoslarga ko'ra, o'ylaymizki, yangi o'quv yili oldidan, maktab o'qituvchilarning tibbiy ko'rikdan o'tishlarida oldingi yillardagi kabi muammolar bo'lmaydi.

Davron AKBAROV,
Dang'ara tumanidagi
12-maktab direktori

Abdushukurdan ikki oq'iz "ma'ruza"



Kecha facebookka birisi shunday post qo'yibdi: "Agar tanlash imkonini bo'lganda qayerda tug'ilardingiz?". Izohlarga qarash, deyarli hamma Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Yaponiya, Koreya, Fransiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarni tanlagan. Ayrimlar "Rossiyada tug'ilgan bo'lardim. Shunda sarson bo'lib qatnab yotmasdik" deb yozibdi. Mana, Vatan tuyg'usi darslarida futbol o'ynashning oqibati. Zamon ko'tarsa, hammasini eshakka teskari mindirib sazoyi qilgan bo'lardim. Hayf senlarga-yel Uchinchi Rennessansga poydevor qurayotgan, osmoni musaffo, tinch va farovon yurtimizning ulardan nima kam joyi bor?

O'shalardan biri bilan tortishib ham qoldim:

— Aka, G'arbning ayollari faqatgina bola tug'ish uchun yashamaydi. Qog'ozlarda emas, hayotda ham ayollar erkaklar bilan teng huquqli.


— Bizda ham shunday. Ana, ayollar erkaklar bilan barobar chet ellarda mardikorlik qilib yuribdi-ku!

— Ta'lim tizimi butunlay rasvo. Jahon reytinglari bo'yicha biror OTMmiz bormi?

— Tavba de bo'tam, ko'rmasang ko'zgingang oqib tushadi. Masalan, hatto hali chillasi chiqmagan Yangi O'zbekiston universiteti ham "lyuboy"i bilan bellasha oladi.

— Anomal issiq sizga yomon ta'sir qilganga o'xshaydi. Yangi O'zbekiston ulardagi ta'lim sifatiga yetib olaman deguncha, tuyaning dumi yerga tegadi, ho'kiz tug'adi, termamiz jahon chempionatiga chiqadi.

— Buncha hovliqasan, men ham ta'lim sifatini aytmadim, kontrakt to'lovi bo'yicha deyapman.



— U yerda o'qituvchilik juda obro'li kasb. Oyligi ham bizdagidan 20-30 barobar ko'p. Undan keyin istagan odam maktabga kelib, o'qituvchini tepkilamaydi.

— Sen noshukur yaxshiyam bizi maktabga mallim bo'lmagansan. Shu gaplaring bilan kaltakdan boshing chiqmasdi. O'zim borib jag'ingni sindirib kelardim. Ularga men o'qituvchi bo'linglar debmanmi? Hurmat-izzat deysan, hurmatini joyiga qo'yib paxta tergizmayapmiz-ku. Paxtaga chiqmasa, ko'cha tozalama, daraxt oqlama, nimasiga pul beramiz? Bir suruv bolani yig'ib olib manov "A", manov "B" deyshini men ham bilaman.

— Hamma tomon korrupsiya. Manaman degan amaldoringiz olsa 10 million so'm oylik olar, ha boring yigirma million. Bir yilga bormay, hashamatli uy, oyligini tishining kovagida saqlab, uch-to'rt yil yig'sa ham qurbi yetmaydigan moshinani qayerdan oladi?

— Kattalar nima qilishni o'zlari yaxshi biladi. Senga maslahatim, siyosatga aralashma, bola! Mondimay ketasan. Shukur qil. Osmonimiz musaffo, hayotimiz farovon...

Bular bilan tortishganning o'zi ahmoq. "Tilim bor" deb har narsani valdirayveradi. Bunaqalar shahar-ku mayli, qishloqlarda ham ko'payib boryapti. Tunov kuni qo'shnim chiroq o'chishidan nolib qoldi. Oshirib so'kdim:

— Ota-bobong svetsiz ham yashagan-ku. Kuni bilan dalada eshakday ishlab, quyosh botishi bilan xurrakni tortadigan odamga chiroqning nima keragi bor. Svet yonsa, televizor ishlaydi, televizor ko'rgan bolalarning miyasi zaharlanadi, keyin yuradi ular ham "Amerikada tug'ulishim kerak edi" deb.

— Xo'p, chiroq yonmasa ham hech bo'lmaganda qishlog'imizga gaz kelsa yaxshi bo'lardi. Davlatimiz gaz qazib chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda, lekin qishloq-ku qishloq, shaharlarni ham gaz

puvga tushib ketsa, buziladi-qoladi, g'ilof baquvvat narsa. Sandiqqa solib qo'ysang, nevaralariga ko'rsatib maqtanasan-da. Yana qaytaraman, Kattalar ishini bilib qiladi;

shofyorlar — tanirovka pulli bo'lib, soyaga ham soliq to'layotganidan (nasaf olish tekinligiga shukur qil);

menga qarz berganlar vaqtida qaytarmayotganidan (mendani qaytmasa bolalarimdan, nevaralarimdan, nevaralarimdan qaytmasa chevaralarimdan, ulardan ham qatmasa, Xudo yo'lga bergandim, deb umid-ingizni uzavering, savob bo'ladi);

futbol muxlislari termamizning jahon chempionatiga chiqolmaganidan (Borib so'rdim tabiblardan: "Burdardimga davo bormu?"). Tabib ayurki: "Ey nodon, bu dardni bedavo derlar);

yoshlar tiktokning bloklanganidan (bundan men ham noroziman. Chunki, tiktokni yomonlab yozgan 5-6 ta maqolam hali bosilib chiqmagandi. Essiz, bekor yopilib ketdi-da).

oshqozonim go'shtgining qorasini ko'rmanidan (o'l-a, sabzining rangini esidan chiqarganlar bor. Sen go'shtdan gapirasan);

"shapaloqchi"lar yozgan maqolalarini hech kim o'qimayotganidan norozi (o'qimaganiga shukur qil, biror kim o'qib qolsa, ko'radiganingni ko'rarding. Yurarding eshikma-eshik kechirim so'rab)...

Xullas, bularni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi.



bilan taminlay olmayapti. Shuncha gaz qayerga ketadi?

— Shu gapni yaxshiyam menga aytding. Boshqa birov eshita, Kattalarning o'zi kelib o'sha gazingni hammasini senga berib ketardi. Gazsiz kunlarning baxtini shunda his qilarding. Ay nodon, qishloqqa gaz kelsa, tappi qilishga xo'jat qolmaydi. Tappi qilinmagach uylanishga ham ehtiyoj yo'q. Million-millonga to'y qilib, xotinni faqat bola tuqqani olmasan-ku. "Xarajatini qoplamaydi" deb qishloqqa hech kim uylanmay qo'yadi. Mamlakatimizda aholi kamayib ketadi, inqiroz yuz beradi. Kattalarning har ishida hikmat bor. Endi tushundingmi nimaga qishloqlarga gaz kelmasligini?!

Bu noshukurlarning dastidan, dod! Hammasini yig'ib-terib O'zi chaqirsin!

Kuzatishlarimga qaraganda, jamiyatimizda norozi bo'lmagan odamni topish juda qiyin ekan. Hamma nimadandir norozi. Masalan:

Pistachi xotinalar — gazetalarining tiraji tushib ketganidan (xaridorlaringiz bittadan obuna bo'lsin edi);

amaldorlar — blogerlar-u jurnalistlarning tiliga yara chiqmaganidan (munajjimlar bashoratiga qaraganda, bu masala tez orada yechimini topadi);

qashqadaryolik sportchi qiz — Osiyo chempioni bo'lganda va'da qilingan iPhone X ning o'rniga hokimlik uning g'ilofini berganidan (telefonning o'zi suv-

Nasihatlarim ko'pchilikka ta'sir qilmagach, o'ylab-o'ylab oxiri ularga aytoqchi bo'lganlarimni she'rga solishga qaror qildim. Qo'y og'ayni, she'r yozmagan bir sen qolganding, boshqa tuzukroq ish qilsang bo'lmaydi, deysizmi? Meni bilmas ekansiz. 18 ta kitobim chiqqan, "Yurtboshimiz omon bo'lsin", "Zamon-zamon bizning zamon, davron bizniki", "Istalin otamizga sharaflar" (uzr yaqinda kitob nomini tahrir qilganim esimdan chiqibdi "Otamizga sharaflar"), Mustaqilligimizning 1, 2, 3, 4, 5, 6...30 yilligiga bag'ishlangan she'rlarimni hamma yoddan biladi. Ishonmasangiz mana, "shukur qil" degan she'rim. Shu qadar yangiki, hali o'zim o'qimaganman:

Nega nolib yashaysan? Berganiga shukur qil, Uylar qimmat demagil, qurganiga shukur qil.

Moshinalarning narxi osmonga chiqib ketgan, Qiyshiq bo'lsa-da oyoq yurganiga shukur qil.

Chechajon, tog'am Moskov ketganidan qayg'urma, Bu zamonda amallab "surgani"ga shukur qil.

U yoqlarda bir o'ris juvonga uylansa ham, Qarg'amagin dollarlar kelganiga shukur qil.

Nolimagin, ey mallim, yuzlarim ko'kardi deb O'ldirmaydigan qilib urganiga shukur qil.

Amaldor og'am bugun pora olib qamalding, Avvalgisi sandiqda turganiga shukur qil.

(Shapaloqiyning senga aytarlari ko'p edi, Gapni boshqa tomonga burganiga shukur qil).

Tahririyatga kelgan maktublarda doim qandaydir muhim gap, dolzarb muammo yoki dildan yozilgan izhorlar o'rin olgan bo'ladi. Ularni o'qib yurtimizning har bir burchagida bizni o'qiyotganlar, dilidagilarni ochishni istaganlar, "uyg'oq" qalbli odamlar borligiga quvonamiz. Bu safargi maktublarda ham o'ziga xos mushohadalar, kuyunchaklik bilan ko'tarilgan muammolarni o'qishingiz mumkin.

Hech kuzatganmisiz, bog'bon hali qishning ayozli kunlari ketmay, erta bahorning quyoshi yoyilmay, yerga urug' qadaydi. Unib chiqqan niholni mehr bilan parvarish qiladi, payvandlaydi, u ko'kargach, mo'l hosil, shirin meva, serdarmad bog' buniyod etish uchun bor kuch-quvvatini sarflab e'tibor beradi, tong qorong'usidan shom qorong'usigacha tinim bilmay mehnat qiladi, tarbiyalaydi. Har bir niholga qalb qo'rini beradi.

Fan bog'ining bog'bonisiz, Muallim!

Ba'zan barchasiga birdek qaragani bilan hamma ko'chatlari ham barobar o'savermaydi. Shuning uchun kechikayotganlarini alohida parvarish qiladi, qo'shimcha o'g'itlar bilan oziqlantiradi, kasallanganlari bo'lsa, ularni ham kimyoviy unsurlar bilan sog'lomlashtirishga harakat qiladi va natijada yillar o'tib hosili unumdor bog' barpo bo'lishiga erishadi. O'shanda qilgan sayi-harakatlari mevasini tatiy boshlaydi.

Biz ustozlar ham shu bog'bonga o'xshaymiz. Faqat bog'bon yoki dehqon kabi yerga emas, nurga ilm urug'ini qadaymiz.

Qalb bu nur. Ayniqsa, bola qalbi chanqoq, sog'inchoq nurki neni ek-sak, shaksiz, undiradi, ko'kartiradi. Shunday ekan, bizlar o'ta mas'uliyat, ziyarak, kuchli salohiyat va komillik egasi bo'lmog'imiz lozim. Vazifamiz — ilm dargohiga qadam quyay ekanmiz, shaxsiy hayotimizdagi muammolarni unutib, bu kun sening ko'zingga umid-la termulgan beg'ubor dunyoga quyosh yanglig' singa olishimiz, o'zimizda mavjud (nurli) urug'ni (ilmni) boladagi nur bilan uyg'unlashtirmog'imiz, kundalik jarayonlar(darslar) da mehr-muhabbat ila nurli shoxlardan payvandlash, yani o'quvchining eng yaxshi fazilatlarini bir-biriga yuqtirish, nursizlarini butash, nurlilari ko'karganda doimiy nazorat qilish. Yashiringan noo'rin novdalarni qir-qishdir. Bu jarayonni quyidagicha amalga oshiramiz. Biz yosh qalbnii biroz egri o'sayotgan tomonlarini ham ko'ramiz, ammo uning egri tomonlarini o'ziga sezdirgan holda yoqotish payida bo'lamiz, biz eslatmasak ham o'zi kuni kelib, unitib yuboradi. Albatta, bu jarayon biz istagandek bo'lishi uchun keng fe'llik, sabr-toqat, matonat talab etadi.

Moddiylik evaziga ma'naviyatni sotib ololmasligimizni, aksincha, ma'naviyat bor joyni moddiylik o'zi kelib to'ldirajagini anglatmoq ham bizning vazifamiz. Bu aksioma va u isbot talab qilmaydi.

Shunda biz ham saxovatli bog'bon kabi bog' yaratamiz, ammo bizning bog'imiz Ma'rifat bog'i deb ataladi. Mevamiz — nurli qalb sohiblari jamlangan jamiyat. Bu bog' ziyosi ajdodlar ilmidan nurlangan, avlodlar tafakkurini, mavjud dunyomizni yoritguvchi so'nmas mash'ala bo'lmog'i muqarrar.

Shoira XOMIDOVA,
Diloyat OBIDOVA,
Farg'ona tumanidagi
12-maktab o'qituvchilari

Husnixatingiz tahsinga loyiq(mi)?

O'quvchi eshitib o'rganganidan tashqari o'z tushunchalarini yozma ravishda ifodalash orqali ham o'zlashtirib boradi. Shu o'rinda fanlar bo'yicha yuritilayotgan o'quvchi daftari va kundalik reyting daftari kabi o'quv ashyolarining ahamiyati katta.

O'qituvchi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, yuqorida tilga olingan o'quv ashyolarining namunali va yarashliq yuritilishini nazorat qilib, rag'batlantirib, ko'rsatmalar berib boradi. Bizning maktabimizda daftarlari varag'ining buklanmasligi, ifos bo'lmasligi hamda yirtilmasligi uchun

alohida sallafan yoki kartonli papkalarga joylab portfelda olib yurishga o'rgatiladi. Shuningdek, har bir sinfda "To'g'ri yozibsizmi?", "Kimning husnixati chiroyli?", "Husnixatimizni solishtiramizmi?" kabi burchaklar tashkil etilganligi sabab o'quvchilar tomonidan yuritilayotgan eng yaxshi va namunali daftarlari bu yerga ko'rgazma sifatida qo'yib boriladi.

Kundalik reyting daftari orqali o'quvchi chiroyli husnixati bilan kundalik hayoti haqida ma'lumot berib boradi. Uni varaqlar ekansiz o'quvchining hulq-atvori, fanlardan o'zlashtirishi, o'quv qurollarining qay

Har bir rahbar tarbiyachi bo'lsin

Ajdodlardan bizga qator qadriyatlar qoldirilgan. Ayniqsa, o'zbekning qon-qoniga singib ketgan uyat-andisha fazilatlarini naqadar go'zal. Ammo biz so'ngi yillarda bu fazilatlardan kamchilik izlay boshlagandik.

Uyat va andisha deb o'zimizni ko'p qadriyatlarining tushovida qolgandek his qildik. Oqibatini esa bugun insonlarning yengiltakliklarida ko'ryapmiz. Ha, uyat tushunchasi keraksizdek bo'lib qoldi. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zini tentak qilib ko'rsatib "layk" va "prosmotr" yig'ayotgan yoki bir-biriga haqoratli videomurojaatlar yuborayotgan san'atkorlarni ko'rib uyat-andisha degan narsa unutilayotganidan xavotirga tushasan kishi. Oqibatda hazil deya qilingan ishlar katta ahmoqgarchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shundaylar ham borki, qonunbuzarlikda ayblanib, javobgarlikka tortilgach ham o'zini "g'oz"dek tutib yuraveradi. Ajdod-

larimiz davrida jamoatchilik tomonidan uyatirilgan shaxsdan qavm-qarindoshlari izza bo'lganlar. Va ko'pchiliklashib o'sha kishiga to'g'ri yo'lni tanlashiga ko'maklashganlar.

Hozir tarbiya xususida birmuncha tortishuvlar bo'lmoqda. Kimdir bola tarbiyasi bilan ota-onalar shug'ullansin desa, yana kimlardir butkul o'qituvchilar zimmasiga yuklamoqchi bo'ladi. Aslida tarbiya ishi bilan butun jamoatchilik shug'ullangani ma'qul. Har bir tashkilot rahbari tarbiya-axloq masalasida o'zini chetga olishi mumkin emas! Rahbarlarning har biri o'zi boshqarayotgan jamoaning tarbiyachisi bo'lishi kerak. Shundaygina qaysi nuqtada tarbiya oqsayotganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Joriy o'quv yilidan maktablarda "Tarbiya" darslari qo'yilganidan juda quvondim. Bugungi axborot asrida bu juda ham zarur qadam bo'ldi.

Melilboy XOLOV,
Shahrisabz tumanidan
nafaqadagi o'qituvchi

Qishloqlarda qishdan cho'chimaydigan maktablar ko'paymoqda

Maktabimizdagi yosh kadrlarga havasim keladi. Ular texnika bilan birga ulg'aydi. Tafakkuri keng, ilg'or. Ozroq to'g'ri yo'l ko'rsatsangiz, ildamlab ketishadi. Xatirchi tumanidagi biz faoliyat yuritayotgan 74-maktabda ham yosh pedagoglarga e'tibor kuchli. Ulardan umidimiz katta.

Pedagoglar jamoamizda ustoz-shogird an'anasi yaxshi yo'lga qo'yilgan. 482 nafar o'quvchiga 68 nafar tajribali pedagoglar tahsil berib kelmoqda. Gulnam Usmonova, Ma'mura Ergasheva, Aziz Najmiddinov, Marhabo Qodirovalar eng ilg'or o'qituvchilarmizdan. Ulardan ta'lim-tarbiya olgan o'quvchilar respublikamizning nufuzli oliy o'quv-yurtlariga kirayapti. O'tgan yilning o'zida 92 nafar bitiruvchidan 42 nafari oliy o'quv yurtiga o'qishga kirdi. Quvonarlisi, ularning aksariyati pedagogikaga ixtisoslashgan universitet va institutlarga kirdi. Bundan bilish mumkinki, ortimizdan umidli yoshlar, "o'zimizning kadrlar" ulg'ayib kelmoqda.

Bugun yo'llar ham ravon, maktabimiz zamonaviy ta'mirlangan. Qishloqlarda qishdan cho'chimaydigan maktablar soni ko'paymoqda.

Inobat QALANDAROVA,
Xalq ta'limi a'lochisi

tartibda saqlanishi va yuritilishini bilib olsa bo'ladi.

Afsuski, hamma maktablarda ham o'quvchilar tomonidan yuqorida tilga olingan ashyolarining yuritilishi ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. Ayrim o'qituvchilar va sinf faollarining e'tiborsizligi hamda nazoratning sust olib borilayotganligi tufayli daftar varaqlarining buklanligi, yirtib olinganligi, jildiga har xil shakl va suratlar chizilganligini ko'rib ranjaysiz. Natijada o'quv choragi tugamay turib yozuv daftarlari yangilashlariga to'g'ri kelmoqda.

Daftar muqovasida qayd etilgan o'quvchi manzilini to'ldirishda juz'iy xatoliklar ham uchrab turadi. FHDIY xodimlarining loqaydligi va e'tiborsizligidan o'quvchining tug'ilganlik ha-

qidagi guvohtomasida(masalan, Ishmatov Sapar, Parmonov Husnitdin, Atabayev Yusuf va h.k.) orfografik jihatdan noto'g'ri to'ldirilgan ism-shariflarga duch kelamiz. Shuning uchun biz pedagoglar maktab ma'muriyati bilan kelishgan holda ana shu xato va kamchiliklarning oldini olish maqsadida har gal yangi o'quv yili oldidan alohida daftar yuritib, sinf hujjatlariga qushimcha ravishda ism-shariflarni (Eshmatov Safar, Farmonov Husniddin, Otaboyev Yusuf tarzida) to'g'ri qayd etib boramiz. Bu bilan yuqorida tilga olingan orfografik xatolar takrorlanmasligiga erishamiz.

Dilbar BERDIMURODOVA,
G'allaorol tumanidagi
24-umumta'lim maktabining
O'na tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Abdushukurdan ikki oq'iz "ma'ruza"



Kecha facebookka birisi shunday post qo'yibdi: "Agar tanlash imkonini bo'lganda qayerda tug'ilardingiz?". Izohlarga qarasam, deyarli hamma Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Yaponiya, Koreya, Fransiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarni tanlagan. Ayrimlar "Rossiyada tug'ilgan bo'ldim. Shunda sarson bo'lib qatnab yotmasdik" deb yozibdi. Mana, Vatan tuyg'usi darolarida futbol o'ynashning oqibati. Zamon ko'tarsa, hammasini eshakka teskari mindirib sazoyi qilgan bo'ldim. Hayf senlarga-ye! Uchinchi Renessansga poydevor qurayotgan, osmoni musaffo, tinch va farovon yurtimizning ulardan nima kam joyi bor?

puvga tushib ketsa, buziladi-qoladi, g'ilof baquvvat narsa. Sandiqqa solib qo'ysang, nevaralariga ko'rsatib maqtanasan-da. Yana qaytaraman, Kattalar ishini bilib qiladi);

shofyorlar — tanirovka pulli bo'lib, soyaga ham soliq to'layotganidan (nasaf olish tekinligiga shukur qil);

menga qarz berganlar vaqtida qaytarmayotganidan (mendan qaytmasa bolalarimdan, nevaralarimdan, nevaralarimdan qaytmasa chevaralarimdan, ulardan ham qatmasa, Xudo yo'lga bergandim, deb umidimizni uzavering, savob bo'ladi);

futbol muxlislari termamizning jahon chempionatiga chiqolmaganidan (Borib so'rdim tabiblardan: "Bu dardimga davo bormu?"). Tabib ayurki: "Ey nodon, bu dardni bedavo derlar);

yoshlar tiktokning bloklanganidan (bundan men ham noroziman. Chunki, tiktokni yomonlab yozgan 5-6 ta maqolam hali bosilib chiqmagandi. Essiz, bekor yopilib ketdi-da).

oshqozonim go'shtgining qorasini ko'rmaganidan (o'l-a, sabzining rangini esidan chiqarganlar bor. Sen go'shtdan gapirasan);

"shapaloqchi"lar yozgan maqolalarini hech kim o'qimayotganidan norozi (o'qimaganiga shukur qil, biror kim o'qib qolsa, ko'radiganingni ko'rding. Yurarding eshikma-eshik kechirim so'rab)...

Xullas, bularni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi.

O'shalardan biri bilan tortishib ham qoldim:

— Aka, G'arbning ayollari faqatgina bola tug'ish uchun yashamaydi. Qog'ozlarda emas, hayotda ham ayollar erkaklar bilan teng huquqli.


— Bizda ham shunday. Ana, ayollar erkaklar bilan barobar chet ellarda mardikorlik qilib yuribdi-ku!

— Ta'lim tizimi butunlay rasvo. Jahon reytinglari bo'yicha biror OTMmiz bormi?

— Tavba de bo'tam, ko'masang ko'zging oqib tushadi. Masalan, hatto hali chillasi chiqmagan Yangi O'zbekiston universiteti ham "lyuboy"i bilan bellasha oladi.

— Anomal issiq sizga yomon ta'sir qilganga o'xshaydi. Yangi O'zbekiston ulardagi ta'lim sifatiga yetib olaman deguncha, tuyaning dumi yerga tegadi, ho'kiz tug'adi, termamiz jahon chempionatiga chiqadi.

— Buncha hovliqasan, men ham ta'lim sifatini aytmadim, kontrakt to'lovi bo'yicha deyapman.



— U yerda o'qituvchilik juda obro'li kasb. Oyligi ham bizdagidan 20-30 barobar ko'p. Undan keyin istagan odam maktabga kelib, o'qituvchini tepkilamaydi.

— Sen noshukur yaxshiyam bizi maktabga mallim bo'lmagansan. Shu gaplaring bilan kaltakdan boshing chiqmasdi. O'zim borib jag'ingni sindirib kelardim. Ularga men o'qituvchi bo'linglar debmanmi? Hurmat-izzat deysan, hurmatini joyiga qo'yib paxta tergimayapmiz-ku. Paxtaga chiqmasa, ko'cha tozalama, daraxt oqlamasa, nimasiga pul beramiz? Bir suruv bolani yig'ib olib manov "A", manov "B" deishini men ham bilaman.

— Hamma tomon korrupsiya. Manaman degan amaldoringiz olsa 10 million so'm oylik olar, ha boring yigirma million. Bir yilga bormay, hashamatli uy, oyligini tishining kovagida saqlab, uch-to'rt yil yig'sa ham qurbi yetmaydigan moshinani qayerdan oladi?

— Kattalar nima qilishni o'zlari yaxshi biladi. Senga maslahatim, siyosatga aralashma, bola! Mondimay ketasan. Shukur qil. Osmonimiz musaffo, hayotimiz farovon...

Bular bilan tortishganning o'zi ahmoq. "Tilim bor" deb har narsani valdirayveradi. Bunaqalar shahar-ku mayli, qishloqlarda ham ko'payib boryapti. Tunov kuni qo'shning chiroq o'chishidan nolib qoldi. Oshirib so'kdim:

— Ota-bobong svetsiz ham yashagan-ku. Kuni bilan dalada eshakday ishlab, quyosh botishi bilan xurrakni tortadigan odamga chiroqning nima keragi bor. Svet yonsa, televizor ishlaydi, televizor ko'rgan bolalarning miyasi zaharlanadi, keyin yuradi ular ham "Amerikada tug'ulishim kerak edi" deb.

— Xo'p, chiroq yonmasa ham hech bo'lmaganda qishlog'imizga gaz kelsa yaxshi bo'lardi. Davlatimiz gaz qazib chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda, lekin qishloq-ku qishloq, shaharlarni ham gaz



bilan taminlay olmayapti. Shuncha gaz qayerga ketadi?

— Shu gapni yaxshiyam menga aytding. Boshqa birov eshitsa, Kattalarning o'zi kelib o'sha gazingni hammasini senga berib ketardi. Gazsiz kunlarning baxtini shunda his qilarding. Ay nodon, qishloqqa gaz kelsa, tappi qilishga xojat qolmaydi. Tappi qilinmagach uylanishga ham ehtiyoj yo'q. Million-millonga to'y qilib, xotinni faqat bola tuqqani olmasan-ku. "Xarajatini qoplamaydi" deb qishloqda hech kim uylanmay qo'yadi. Mamlakatimizda aholi kamayib ketadi, inqiroz yuz beradi. Kattalarning har ishida hikmat bor. Endi tushundingmi nimaga qishloqlarga gaz kelmasligini?!

Bu noshukurlarning dastidan, dod! Hammasini yig'ib-terib O'zi chaqirsin!

Kuzatishlarimga qaraganda, jamiyatimizda norozi bo'lmagan odamni topish juda qiyin ekan. Hamma nimadandir norozi. Masalan:

Pistachi xotinalar — gazetalarining tiraji tushib ketganidan (xaridorlaringiz bittadan obuna bo'lsin edi); amaldorlar — blogerlar-u jurnalistlarning tiliga yara chiqmaganidan (munajjmlar bashoratiga qaraganda, bu masala tez orada yechimini topadi);

qashqadaryolik sportchi qiz — Osiyo chempioni bo'lganda va'da qilingan iPhone X ning o'rmiga hokimlik uning g'ilofini berganidan (telefonning o'zi suv-

Nasihatlarim ko'pchilikka ta'sir qilmagach, o'ylab-o'ylab oxiri ularga aytmoqchi bo'lganlarimni she'rga solishga qaror qildim. Qo'y og'ayni, she'r yozmagan bir sen qolganding, boshqa tuzukroq ish qilsang bo'lmaydi, deysizmi? Meni bilmas ekansiz.

18 ta kitobim chiqqan, "Yurtboshimiz omon bo'lsin", "Zamon-zamon bizning zamon, davron bizniki", "Istalin otimizga sharaflar" (uzr yaqinda kitob nomini tahrir qilganim esimdandir chiqibdi "Otamizga sharaflar"), Mustaqilligimizning 1, 2, 3, 4, 5, 6...30 yilligiga bag'ishlangan she'rilarimni hamma yoddan biladi. Ishonmasangiz mana, "shukur qil" degan she'rim. Shu qadar yangiki, hali o'zim o'qimaganman:

Nega nolib yashaysan? Berganiga shukur qil, Uylar qimmat demagil, qurganiga shukur qil.

Moshinalarning narxi osmonga chiqib ketgan, Qiyshiq bo'lsa-da oyoq yurganiga shukur qil.

Chechajon, tog'am Moskov ketganidan qayg'urma, Bu zamonda amallab "surgani"ga shukur qil.

U yoqlarda bir o'ris juvonga uylansa ham, Qarg'amagin dollarlar kelganiga shukur qil.

Nolimagin, ey mallim, yuzlarim ko'kardi deb O'ldirmaydigan qilib urganiga shukur qil.

Amaldor og'am bugun pora olib qamalding, Avvalgisi sandiqda turganiga shukur qil.

(Shapaloqiyning senga ayarlari ko'p edi, Gapni boshqa tomonga burganiga shukur qil).

Tahririyatga kelgan maktublarda doim qandaydir muhim gap, dolzarb muammo yoki dildan yozilgan izhorlar o'rin olgan bo'ladi. Ularni o'qib yurtimizning har bir burchagida bizni o'qiyotganlar, dilidagilarni ochishni istaganlar, "uyg'oq" qalbli odamlar borligiga quvonamiz. Bu safargi maktublarda ham o'ziga xos mushohadalar, kuyunchaklik bilan ko'tarilgan muammolarni o'qishingiz mumkun.

Hech kuzatganmisiz, bog'bon hali qishning ayozli kunlari ketmay, erta bahorning quyoshi yoyilmay, yerga urug' qadaydi. Unib chiqqan niholni mehr bilan parvarish qiladi, payvandlaydi, u ko'kargach, mo'l hosil, shirin meva, serdaromad bog' bunyod etish uchun bor kuch-quvvatini sarflab e'tibor beradi, tong qorong'usidan shom qorong'usigacha tinim bilmay mehnat qiladi, tarbiyalaydi. Har bir niholga qalb qo'rini beradi.

Fan bog'ining bog'bonisiz, Muallim!

Ba'zan barchasiga birdek qaragani bilan hamma ko'chatlari ham barobar o'savermaydi. Shuning uchun kechikayotganlarini alohida parvarish qiladi, qo'shimcha o'g'itlar bilan oziqlantiradi, kasallanganlari bo'lsa, ularni ham kimyoviy unsurlar bilan sog'lomlashtirishga harakat qiladi va natijada yillar o'tib hosili unumdor bog' barpo bo'lishiga erishadi. O'shanda qilgan sayi-harakatlari mevasini tatiy boshlaydi.

Biz ustozlar ham shu bog'bonga o'xshaymiz. Faqat bog'bon yoki dehqon kabi yerga emas, nurga ilm urug'ini qadaymiz.

Qalb bu nur. Ayniqsa, bola qalbi chanqoq, sog'inchoq nurki neni ek-sak, shaksiz, undiradi, ko'kartiradi. Shunday ekan, bizlar o'ta mas'uliyat, ziyarak, kuchli salohiyat va komillik egasi bo'lmog'imiz lozim. Vazifamiz — ilm dargohiga qadam quyar ekanmiz, shaxsiy hayotimizdagi muammolarni unutib, bu kun sening ko'zingga umid-la termulgan beg'ubor dunyoga quyosh yanglig' singa olishimiz, o'zimizda mavjud (nurlil) urug'ni (ilmni) boladagi nur bilan uyg'unlashtirmog'imiz, kundalik jarayonlar(darslar) da mehr-muhabbat ila nurlil shoxlardan payvandlash, yani o'quvchining eng yaxshi fazilatlarini bir-biriga yuqtirish, nursizlarini butash, nurlilari ko'karganda doimiy nazorat qilish. Yashiringan noo'rin novdalarni qir-qishdir. Bu jarayonni quyidagicha amalga oshiramiz. Biz yosh qalbnl biron egri o'sayotgan tomonlarini ham ko'ramiz, ammo uning egri tomonlarini o'ziga sezdirilmagan holda yoqotish payida bo'lamiz, biz eslatmasak ham o'zi kuni kelib, unitib yuboradi. Albatta, bu jarayon biz istagandek bo'lishi uchun keng fe'llik, sabr-toqat, matonat talab etadi.

Moddiylik evaziga ma'naviyatni sotib ololmasligimizni, aksincha, ma'naviyat bor joyni moddiylik o'zi kelib to'ldirajagini anglatmoq ham bizning vazifamiz. Bu aksioma va u isbot talab qilmaydi.

Shunda biz ham saxovatli bog'bon kabi bog' yaratamiz, ammo bizning bog'imiz Ma'rifat bog'i deb ataladi. Mevamiz — nurlil qalb sohiblari jamlangan jamiyat. Bu bog' ziyosi ajdodlar ilmidan nurlangan, avlodlar tafakkurini, mavjud dunyomizni yorituvchi. so'nmas mash'ala bo'lmog'i muqarrar.

Shoira XOMIDOVA,
Diloyat OBIDOVA,
Farg'ona tumanidagi
12-maktab o'qituvchilari

Husnixatingiz tahsinga loyiq(mi)?

O'quvchi eshitib o'rganganidan tashqari o'z tushunchalarini yozma ravishda ifodalash orqali ham o'zlashtirib boradi. Shu o'rinda fanlar bo'yicha yuritilayotgan o'quvchi daftari va kundalik reyting daftari kabi o'quv ashyolarining ahamiyati katta.

O'qituvchi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, yuqorida tilga olingan o'quv ashyolarining namunali va yarashliq yuritilishini nazorat qilib, rag'batlantirib, ko'rsatmalar berib boradi. Bizning maktabimizda daftarlari varag'ining buklanmasligi, iflos bo'lmasligi hamda yiritilmasligi uchun

alohida sallafan yoki kartonli papkalarga joylab portfelda olib yurishga o'rgatiladi. Shuningdek, har bir sinfda "To'g'ri yozibsizmi?", "Kimning husnixati chiroyli?", "Husnixatimizni solishtiramizmi?" kabi burchaklar tashkil etilganligi sabab o'quvchilar tomonidan yuritilayotgan eng yaxshi va namunali daftarlari bu yerga ko'rgazma sifatida qo'yib boriladi.

Kundalik reyting daftari orqali o'quvchi chiroyli husnixati bilan kundalik hayoti haqida ma'lumot berib boradi. Uni varaqlar ekansiz o'quvchining huj-atvori, fanlardan o'zlashtirishi, o'quv qurollarining qay

tartibda saqlanishi va yuritilishini bilib olsa bo'ladi.

Afsuski, hamma maktablarda ham o'quvchilar tomonidan yuqorida tilga olingan ashyolarining yuritilishi ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. Ayrim o'qituvchilar va sinf faollarining e'tiborsizligi hamda nazoratning sust olib borilayotganligi tufayli daftarlarning buklanmasligi, yirtib olinganligi, jildiga har xil shakl va suratlar chizilganligini ko'rib ranjaysiz. Natijada o'quv choragi tugamay turib yozuv daftarlari yangilashlariga to'g'ri kelmoqda.

Daftar muqovasida qayd etilgan o'quvchi manzilini to'ldirishda juz'iy xatoliklar ham uchrab turadi. FHDY xodimlarining loqaydligi va e'tiborsizligidan o'quvchining tug'ilganlik ha-

qidagi guvoynomasida(masalan, Ishmatov Sapar, Parmonov Husnitdin, Atabayev Yusup va h.k.) orfografik jihatdan noto'g'ri to'ldirilgan ism-shariflarga duch kelamiz. Shuning uchun biz pedagoglar maktab ma'muriyati bilan kelishgan holda ana shu xato va kamchiliklarning oldini olish maqsadida har gal yangi o'quv yili oldidan alohida daftar yuritib, sinf hujjatlariga qushimcha ravishda ism-shariflarni (Eshmatov Sapar, Farmonov Husniddin, Otabayev Yusuf tarzida) to'g'irlab qayd etib boramiz. Bu bilan yuqorida tilga olingan orfografik xatolar takrorlanmasligiga erishamiz.

Dilbar BERDIMURODOVA,
G'allaorol tumanidagi
24-umumta'lim maktabining
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



Har bir rahbar tarbiyachi bo'lsin

Ajdodlardan bizga qator qadriyatlar qoldirilgan. Ayniqsa, o'zbekning qon-qoniga singib ketgan uyat-andisha fazilatlarini naqadar go'zal. Ammo biz so'nggi yillarda bu fazilatlardan kamchilik izlay boshlagandik.

Uyat va andisha deb o'zimizni ko'p qadriyatlarining tushovida qolganek his qildik. Oqibatini esa bugun insonlarning yengiltakliklarida ko'ryapmiz. Ha, uyat tushunchasi keraksizdek bo'lib qoldi. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zini tentak qilib ko'rsatib "layk" va "prosmotr" yig'ayotgan yoki bir-biriga haqoratli videomurojaatlar yuborayotgan san'atkorlarni ko'rib uyat-andisha degan narsa unutilayotganidan xavotirga tushasan kishi. Oqibatda hazil deya qilingan ishlar katta ahmoqgarchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shundaylar ham borki, qonunbuzarlikda ayblanib, javobgarlikka tortilgach ham o'zini "go'z"dek tutib yuraveradi. Ajdod-

larimiz davrida jamoatchilik tomonidan uyatirilgan shaxsdan qavm-qarindoshlari izza bo'lganlar. Va ko'pchiliklashib o'sha kishiga to'g'ri yo'lni tanlashiga ko'maklashganlar.

Hozir tarbiya xususida birmuncha tortishuvlar bo'lmoqda. Kimdir bola tarbiyasi bilan ota-onalar shug'ullansin desa, yana kimlardir butkul o'qituvchilar zimmasiga yuklamochi bo'ladi. Aslida tarbiya ishi bilan butun jamoatchilik shug'ullangan ma'qul. Har bir tashkilot rahbari tarbiya-axloq masalasida o'zini chetga olishi mumkin emas! Rahbarlarning har biri o'zi boshqarayotgan jamoaning tarbiyachisi bo'lishi kerak. Shundagina qaysi nuqtada tarbiya oqsayotganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Joriy o'quv yilidan maktablarda "Tarbiya" darslari qo'yilganidan juda quvondim. Bugungi axborot asrida bu juda ham zarur qadam bo'ldi.

Meliboy XOLOV,
Shahrisabz tumanidagi
nafaqadagi o'qituvchi

Qishloqlarda qishdan cho'chimaydigan maktablar ko'paymoqda

Maktabimizdagi yosh kadrlarga havasim keladi. Ular texnika bilan birga ulg'aydi. Tafakkuri keng, ilg'or. Ozroq to'g'ri yo'l ko'rsatsangiz, ildamlab ketishadi. Xatirchi tumanidagi biz faoliyat yuritayotgan 74-maktabda ham yosh pedagoglarga e'tibor kuchli. Ulardan umidimiz katta.

Pedagoglar jamoamizda ustoz-shogird an'anasi yaxshi yo'lga qo'yilgan. 482 nafar o'quvchiga 68 nafar tajribali pedagoglar tahsil berib kelmoqda. Gulshanam Usmonova, Ma'mura Ergasheva, Aziz Najmiddinov, Marhabo Qodirovalar eng ilg'or o'qituvchilardan. Ulardan ta'lim-tarbiya olgan o'quvchilar respublikamizning nufuzli oliy o'quv-yurtlariga kiriyapti. O'tgan yilning o'zida 92 nafar bitiruvchidan 42 nafari oliy o'quv yurtiga o'qishga kirdi. Quvonarlisi, ularning aksariyati pedagogikaga ixtisoslashgan universitet va institutlarga kirdi. Bundan bilish mumkinki, ortimizdan umidli yoshlar, "o'zimizning kadrlar" ulg'ayib kelmoqda.


Bugun yo'llar ham ravon, maktabimiz zamonaviy ta'mirlangan. Qishloqlarda qishdan cho'chimaydigan maktablar soni ko'paymoqda.

Inobat QALANDAROVA,
Xalq ta'limi a'lochisi

Qachon savodxonlikka

“O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini” xalqimizni savodli qila olyaptimi? Afsuski, bu savolga qariyb 30 yillik tajribaga ega, oliy toifali ona tili o'qituvchisi sifatida yo'q deb javob beraman.


“Asos va qo'shimchalar imlosi”dagi quyidagi qoidaga diqqat qaratamiz:



Bu qoida imlo qoidalaridan aynan olinib, amaldagi yangilangan 5-sinf “Ona tili” darsligida keltirilmoqda. Xo'sh, qoidaning 2-bandida nega aynan parvo, obro', mavqev, mavzu, avzo so'zlar tanlab olingan. Bunday ko'rinishdagi boshqa so'zlar tilmizda yana ko'p-ku. Masalan, orzu so'ziga egalik shakllari qanday qo'shiladi? Imlomizda bunga javob bormi?

Taklifim: Bu borada imloga erkinlik berilsin, ya'ni talaffuz qilganday tovushi ortadigan so'zlarning barchasi orzuyim, mavzuyim tarzida qanday talaffuz qilinsa, shunday yozilsin. Faqat shunda xatolikning oldini olish mumkin.

Fikrimni manbalar asosida izohlashda davom etaman. 6-sinf “Ona tili” darsligi “Bosh harflar imlosi” qoidalariga e'tibor qaratamiz.



O'zbekiston Oliy Majlisi, «Bahor» konsert zali, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Oliy xo'jalik sudi, Buxoro viloyati hokimligi, Osiyo Taraqqiyot Banki, «O'qituvchi» nashriyoti, «Umidsizlik», «Istiqbol» fermer xo'jaligi, O'zbekiston Vazirlar Mahkamasini, «Nuroniy» jamg'armasi, Samarqand chinni zavodi, Quvasoy sement zavodi, «Turkiston» saroyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Guliston davlat universiteti.

Xalqaro tashkilot nomlari	Davlat oliy tashkiloti nomlari	Davlat muassasasi nomlari	Korxonalar nomlari

Davlat oliy tashkilotlari, mansablar, vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilot nomlari imlosi bilan bog'liq qoidalar nihoyatda murakkab va mujmal. Birgina misol keltiraman: **O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi** (Barcha so'zlar bosh harf bilan yozilgan). **Fan va texnika davlat qo'mitasi** (Faqat birinchi so'zi bosh harf bilan yozilgan). Bu qoidani qanday tushunmoq kerak? Umuman, mashqda keltirilgan nomlarni kim to'g'ri yoza oladi? Mashq quyisida keltirilgan jadvalni to'ldirish uchun kishi kamida vazirlikda ishlaydigan mutaxassis filolog bo'lishi kerak. Yoki **O'zbekiston Milliy tikanlash demokratik partiyasi** nomi uchun xuddi shunday imlo qoidasi tavsiya etilgan. Bu imlo ikkala qoidaga ham mos emas. Boshidagi ikki so'z bosh harfda, keyingilari kichik harfda. Imlodagi mantiq qani!?


Imlo qoidasida **“oliy davlat tashkilotlari va mansablarining har bir so'zi bosh harf bilan yoziladi”** degan qoida keltirilgani holda o'sha qoidaning tagida 287-mashqda Oliy xo'jalik sudi nomining faqat birinchi so'zi bosh harfda, qolgan ikki so'zi kichik harfda yozilganini nima bilan izohlash mumkin? Oliy xo'jalik sudi nomida oliy so'zi bo'lmaganda ham xato bunchalik bo'rtib ko'rinmagan bo'lardi. Bu qoida bir sahifa oshib ulgurmay, darslik mualliflarining esidan chiqib qolyapti-yu, rasmiy davlat idoralarga ishi tushmagan, ularning vazifasi nima ekanligini tushunishga qodir bo'lmagan 6-sinf o'quvchisi qanday savod chiqarsin? Nafaqat bola, katta yoshdagilar ham ushbu nomlar haqida to'liq tushunchaga ega emas-ku. Davlat mukofotlari, orden va medal nomlari imlosi haqidagi qoidalar ham xuddi shunday mujmal. Jamiyatning eng ziyoli qatlamiga ham og'irlik qiladigan bunday imlo qoidalarini tuzatish payti kelmadimikan? Aks holda, hech qachon savodxonlikka erishmaymiz, bir-birimizni ayblab yashayveramiz.

Test tuzuvchilardan uzr so'rayman-u, ba'zan bu qoidalar atayin chalkashtirish, o'rganish qiyin bo'lishi uchun o'ylab topilgandek tasavvur uyg'otadi. Rahmatli olim Omonulla Madayevning “Bu testni bolasi yo'q odamlar tuzgan”, degan fikrlari har birimiz uchun saboq bo'lmog'i kerak.

Qoidalarni tuzayotganda bolaning imkoniyatidan kelib chiqaylik. Yosh avlodni ona tilidan bezdirib qo'ymaylik.


Taklifim: Qo'shma so'zlar bilan ifodalanadigan nomlarning barchasi uchun bir xil imlo me'yorini qabul qilish kerak: yo barcha bo'zi bosh harfda yozilsin, yo barchasining birinchi harfi bosh, qolganlari kichik harfda yozilsin. Buning imloga hech qanday salbiy ta'siri yo'q deb o'ylayman. Bu masalada mutaxassislardan ilmiy izoh so'raymiz. Fikrimizni qayta himoya qilishga tayyormiz.

8-sinf “Ona tili” darsligida ot kesim va ega orasida tirening ishlatilishi borasidagi qoidaga nazar tashlaymiz.



Xo'sh, bunchalik maydalangan qoida nimaga xizmat qiladi? Faqat xatolar chiqishiga xizmat qiladi. Hali bu qoida qayta-qayta fikrlar bildirganimizdan so'ng yengillashirilgan holat. Ammo hamon anqlik yo'q. Axir jamiyatdagi har bir shaxs olmosh, ravish degan ilmiy tushunchalardan boxabar emas. Oddiy so'zlashuvda olmosh va sifatidan foydalanib gapirdim deb xulosa chiqarmaysiz-ku.

Taklifim: Fe'ldan boshqa so'z turkumlarini harakat bildirmaydigan so'zlar sifatida jamlab, birgina qoida kiritsak va murakkablikni bartaraf etsak: kesim fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalanganda va bog'lamasiz qo'llanganda, ega va ot kesim orasiga tire qo'yiladi.



Yuqorida keltirilgan, xuddi shu darslikda ajratilgan bo'lakli gaplar uchun tavsiya etilgan tinish belgilari haqidagi qoidalarga to'xtab o'tishni ham lozim ko'rmasdim. Bu qoidadan professor-u ilmiy darajali filologlar ham biror mantiq ko'ra olishiga ishonmayman. Faqat ikkita savol bermoqchiman:

1. Qoidaning 2-bandida keltirilgan **“Ekranda Yer tasviri ko'rindi...”** deb boshlanuvchi gapda qaysi bo'lak ajratilmoqda?


2. Ajratilgan bo'lak, ko'pincha, vergul, tire va qavs bilan ajratiladi, degan nazariy fikrdan so'ng nega vergul va tirening ishlatilishiga izoh misol keltirilgani holda qavsning ishlatilishi misollar bilan dalillanmagan?

Bu holatning o'ziyoq ikki tinish belgining shu mavzu uchun ortiqcha ekanini ko'rsatib turibdi. Qolaversa, nafaqat tinish belgi, qoidaning 1-bandidagi isbot uchun keltirilgan gap ham to'g'ri emas. **Choyxonada va gav-**

jum joyda so'zlarining o'rmi almashtirilsagina, kitob o'zi tavsiya qilayotgan mantiqqa amal qilgan bo'ladi. Chunki **gavjum joyda** birikmasidan ko'ra choyxonada so'zining ma'nosi aniqroq.

Taklifim: Ajratilgan bo'laklar uchun vergulning o'zi kifoya. Bu o'ringa tire va qavsning tiqlilishi faqat chalkashlik uchun xizmat qiladi. Qavsning ishlatilishi borasida darslik mualliflari biror misol bera olmagani, demak, bu murakkablik borasida bosh qotirish qimmatli vaqtni yo'qotishdan boshqa narsa emas.

Endi diqqatimizni 9-sinf “Ona tili” darsligida bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog'liq qoidalarga qaratamiz. (Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Toshkent “Tasvir” nashriyoti uyi. 2019)



Qoidadan tinish belgilarining qanday qo'yilishini bilib oldik. Endi darslikning 67-sahifasidagi 145-mashqning 4-gapiga qaraymiz: **To'rt mashina o'g'it yubordik — fermerlarga taqsimlansin.** Xo'sh, ikki sodda gap orasiga tire qaysi qoida asosida qo'yilgan? Sodda gaplar orasida o'xshatish, zidlik, shart kabi ma'nolarning qay biri mavjud? Buni izohlaydigan mard bormi? Eng hayratlanarli tomoni, diktant yozayotgan odam diktantidan ortib, shart, sabab, payt va hokazo ma'nolar haqida bosh qotira oladimi? Matnning o'qib yozdirayotgan odam yozayotgan bechorani to'g'ri gapning mag'zini chaqib, tinish belgini qo'yguncha kutib turarmikan?! Eng yomoni shuki, yarim soat o'ylaganingizda ham bu o'ringa tire qo'ya olmaymiz, chunki bu yerda yuqoridagi uch ma'noning birortasi yo'q. Holbuki, gapda tire qo'yilgan va siz hech qanday ma'no topolmay, tire qo'ymasangiz, o'zlari qo'yishadi va sizni savodsizlikda ayblashadi. Bu gap ketma-ket yuz beradigan ikki harakatni ifodalayapti. Ya'ni o'g'it yuborildi, yetib borganch, taqsimlanadi. Bu o'ringa eng yarashadigan tinish belgi — vergul.

Shu darslikdagi 148-mashqning 1-gapiga qarang: **Kampirning jig'i biyroni chiqdi; ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig'irig'ini ko'tarib, vaysaganicha uyiga kirib ketdi.**

Savol: Nuqtali vergul umuman tilga olinmagan o'rinda sodda gaplar orasiga qanday kelib qoldi? Axir kampirning keyingi harakatlari dastlabki holatini izohlab kelyapti-ku! Demakki, qoidaga ko'ra, bu o'ringa ikki nuqta (:) belgisi qo'ysa to'g'riroq. Ammo so'z san'atkori A.Qahhor boshqa belgi qo'yishni lozim topdi va bunga haqli. Holbuki, matn tuzayotgan ijodkor tinish belgini qandaydir ijodiy maqsad bilan qo'yadi. Demakki, A.Qahhorning ham aytar so'zi bor va o'zi xohlagan belgini qo'yishga haqli. Darslikda bunday muammoli gaplarni, afsuski, xohlagancha uchratish mumkin. Bu holatda savodxonlikni to'g'ri tushunish iloji bormi?

Tasavvur qilaylik, aynan bir fikrni kimdir oddiy so'roq ohangida aytsa, kimdir og'riqli bir muammo sifatida undov qo'yarli darajada hayajon bilan aytishi mumkin. Kim matnda qanday ma'no ko'ra olsa, o'shanga mos tinish belgi ishlatishga haqli, xuddi A.Qahhor qo'llagani kabi.



Taklifim: Bu kabi tinish belgilar uchun qat'iy me'yoriy qo'yilishi noto'g'ri deb o'ylayman. Mayli, nuqta, vergul, so'roq, undov, ikki nuqta, qo'shtirmoq kabilarning qo'llanish o'rinlarini har holda tushunsa bo'ladi. Ammo qavs, tire, nuqtali vergul kabilarni qo'yish hamma uchun ham yengil emas. Imloda tinish belgilarining qo'yilishini me'yoriy darajada erkinlashtirish, tinish belgilaridan xato axtaravermaslik kerak.

erishamiz?!

Shu o'rinda yana bir g'alizlikka duch kelamiz. Barcha turdagi darsliklarda tinish belgilari soni 0 ta deb ko'rsatilib, quyidagilar sanab beriladi: *nuqta, vergul, so'roq, undov, qavs, ko'p nuqta, tire, qo'shtirnoq, ikki nuqta, nuqtali vergul*. Lekin biz yozuvda chiziqchani barcha tinish belgilaridan ko'proq ishlatamiz: bo'g'in ko'chiramiz, juft va takroriy so'zlar orasiga qo'yamiz, tartib sonlarni yozishda qo'llaymiz, *qop-qora, yam-yashil* kabi ortirma darajadagi sifatlarni yozamiz, *bilan, uchun* kabi ko'makchilarning qisqargan shaklini yozishda ishlatamiz, yuklamalarni ajratamiz. Xo'sh, imloda shuncha vazifa bajarayotgan bu belgi nega tinish belgisi sifatida kiritilmagan? Har holda tire bilan chiziqchani katta farqi bor deb hisoblayman. Bu borada mutaxassislar, imlo qoidalarini ishlab chiqqan mas'ullar izoh bersa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Ko'pchilikni xato qilishga majbur etadigan yana bir qoidaga to'xtalamiz. Imloning chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish qoidalariga qaraymiz. Bunga ko'ra *uyma-uy, dam-badam* kabi o'rtasida *-ma* yoki *-ba* qo'shimchalari bilan kelgan so'zlar chiziqcha bilan yozilishi, *yildan yilga, kundan kunga* kabi birliklar esa ajratib yozilishi imlo me'yori sifatida berilgan. Xo'sh, bunday imloning qanday ilmiy asosi bor? Imlomizda *juft va takroriy so'zlar chiziqcha bilan yoziladi* degan qoida bo'lgani holda bu chalkashlikning bizga qanday foydasi bor? Axir yuqoridagi so'zlarning barchasi qo'shimchalar bilan kelayotgan takroriy so'zlar-ku!

Taklifim: Asoslar takrorlanganligi sababli bu so'zlar takroriy so'z sifatida qaralishi, shuning uchun bunday so'zlarning barchasi chiziqcha bilan yozilishi me'yori sifatida qabul qilinishi kerak. Quyida yuqoridagi imlo qoidalaridan xabardor holda nashr etilgan, Respublika ta'lim markazi nazoratidan o'tib, ustozlarga tavsiya etilgan diktantlar to'plami, to'plamdan o'rin olgan ayrim diktant matnlaridan namunalari tashladim.



QORBOMO
Hovlimiz Kuytan tog'ining arxivoz yonibg'ida bo'lib, sevragi pastak devor bilan o'ralgandi.
Men shu hovlida to'rt faslni kuzatib, to'rt faslni qo'chirdim. Lekin bular orasida eng yaxshi ko'rganim - qish fasli edi. Gap shundaki, men qish mahallida, qish bo'lganda ham qirchillama kunida, birinchi yanvarga o'tar kechtu. Qorbobo ke'jishidan sal oldin tug'ilgan ekanman. Shuning uchun mendan biron kishi dunyoga kelib, ko'zi'ngi ochib ilk bora ko'rgan narsang nima, deb so'rasa, unandan keyin qishni, qorni, Qorboboni ko'rganman, deymen. Xullas, to'rtalasinu ham yaxshi ko'radim.

MARDLIK
Mardlik - bu insonning o'liy fazilati bo'lib, unda botirlik, qahramonlik, sadoqat, vafo mujassamlangan. Hayotda mard odam bilan birga nomardlik, qo'rqoqlik, sotqinlik kabi salbiy fazilatlarga ega bo'lganlar ham uchrab turadi. Ular mardlik husniga dog' tushiradilar. Mardlik bu ma'manlik emas, aksincha, qiyin ahvotga tushib qolgan odamlarga yordam va madad berish, uni qo'llab-quvvatlashdir. Mard kishi so'zida turadi, bergan va' dasining ustidan chiqadi.
Mardlik fazilatinga ega bo'lgan insonlar har qanday vaziyatda ham odamlar uchun jonini berishdan toymaydilar. Ularda juda kuchli ma'naviy boylik bo'lib, vafo va sadoqatli bo'ladi.

TIL TO'G'IRISIDA
Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz. Til yomon odam xalq ko'nglini jarohatlaydi, o'z boshiga ham ifat yetkazadi... Xususan, odam yumshoqlik bilan do'stona so'z aytadi.

HAYOTDAGI ILK XOTIRALARIM
To'rtinchi sinfda edim. Yoshim o'n ikkilarda bo'lishi kerak. Fransuz tili muallimimiz Aleksis opa bir kun bizga inshodan vazifa topshirdi. Hayotdagi ilk xotiralaringizni yozishga harakat qiling. Ko'raylik-chi, nimalarni eslar ekan-sizlar. Sizlar uchun bu ajoyib xayol mashqi bo'ladi, degan edi u.
Hech esimdan chiqmaydi: sho'xligimdan, sergapligimdan bezor bo'lgan murabbiylarim meni o'rtloqlarimdan ajratib, sinf burchagidagi bir kishilik kichkina partaga o'tqazib qo'yishgan edi.

Men eng mukammal hisoblaganim — ushbu diktantlar to'plamini misol sifatida havola qildim. "Qorbobo" matni ikkinchi xat boshisining ikkinchi gapida edi, to'liqsiz fe'li bog'lama vazifasini bajargani holda nega *yaxshi ko'rganim* birikuvidan so'ng *tire* qo'yilmoqda?

"Mardlik" matni boshida bo'lib bog'lama bo'lgani holda nega mardlik so'zidan so'ng *tire* qo'yilmoqda?

"Til to'g'irisida" matnida "*Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz*" gapida nega ot kesim va ega orasiga *tire* qo'yilmoqda? Yuqorida keltirganimiz 8-sinf "Ona tili" darsligidagi "*ot kesim sifat bilan ifodalansa, tire qo'yilmaydi*" degan qoidaning bu o'ringa daxli yo'qmi?!

"Hayotdagi ilk xotiralaringim" matnida muallima Aleksis opaning fikrlari nega ko'chirma gap shaklida qo'shtirnoq bilan o'ralmagan? O'qituvchi ming mashaqqat bilan o'rgatgan tinish belgilari diktantda bolalar tomonidan qo'llansa-yu, matnga asosan tekshirilgan diktantlardan bu tinish belgilar xato sifatida o'chirib tashlansa, yana o'rgatolmagan shaxs sifatida o'qituvchi qoralanib qolaveradimi?! Xo'sh, "imlo qoidalari" deb nomlangan me'yorga bevosita javobgar bo'lgan, savodxonlikda eng birinchi yordamchi bo'lishi lozim bo'lgan diktantlar to'plamining o'ziki amal qilolmayotgan ekan, o'qituvchining yillab qilgan mehnati havoga uchib ketmayaptimi?! Xulosa o'zingizdan.

Bir paytlar kadrlar salohiyatini tekshirish maqsadida diktantlar olinib, shusiz ham asablari qaqshagan, doimiy zo'rliqish, bosim ostida ishlaydigan, jamiyatda eng himoyasiz qatlam bo'lib qolgan ustozlar katta davralarda izza qilingan, "savodsiz" deb uyaltirilgan edi. Bugungi kunimiz ham bunday vaziyatdan mustasno emas. "Ustozlar bellashuvi" degan qandaydir jarayon orqali bu holat davom etmoqda va yana qaysidir o'z fanining ustasi bo'lgan, imloning murakkabligi evaziga noqulay ahvotga tushib qolayotgan ustozlarimiz bor. To'g'ri, ular orasida haqiqatan savodi haminqadar ustozlar ham bor. Ammo ishonamanki, aksariyat ustozlarimiz yuqoridagi aytganimiz — chalkash tinish belgilarining "xolis xizmati" evaziga obro'sizlantirilgan. Bu jarayon na'faqat pedagogika, balki boshqa sohalarida ham bundan ham og'ir holatda yuz berishi mumkin.

Xalqimizda "Uyat o'limdan qattiq" degan maqol bor. Arzimizda tinish belgilari sabab kelib chiqqan dilxiralik tufayli qon bosimi oshib xasta bo'layotgan, xijolatpazlik tufayli sog'ligi darz ketayotgan insonlar begona emas, o'zimizniki. Imloni zo'rma-zo'raki murakkablashtirishdan voz kechsak, savodxonlikka hissa qo'shgan bo'lardik.

Gavhar USMONOVA,
Narpay tumanidagi
64-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tajriba

Ko'pincha tadbirlarda o'quvchilarning zamonaviy va sho'x qo'shiqlarga raqsga tushganini ko'rib hayron qolaman. Ba'zida sevgi haqidagi qo'shiqlarga raqs tushayotgan kichik yoshdagi bolalarni ko'rib ajablanaman. Balki yangilishayotgandirman, lekin buni yoqlab bo'lmaydi. Axir o'zbek milliy kuy-qo'shiqlari rang-barang-ku...

Milliy kuy — milliy tarbiya

Ilm dargohiga ilk qadam qo'yan bolajonlar shunday beg'ubor, ishonuvchan va mas'uliyatli bo'ladi, ularni yozilmagan yangi daftarga qiyoslash mumkin. E'tibor berganmisiz, ko'pchilik bolalar boshlang'ich sinfda harf o'rgatgan ustoziga taqlid qiladi. Yozuvlari va o'zini tutishi birinchi ustozinikiga o'xshash bo'ladi.

Mening innovatsion uslubim milliy kuy-qo'shiqlar uchun milliy zebigardon va tillaqoshlarni yasash va milliy kiyimlar tikishdan iborat.

O'tgan o'quv yilida 1-sinf rahbarligini oldim. O'quvchilarning o'zbek milliy qadriyatlariga hurmat, g'urur va iftixor bilan qaraydigan insonlar bo'lib yetishishni maqsad qilib qo'ydim. O'zim rahbarlik qilayotgan sinfda "Tanovar" ashula va raqs to'garagi tashkil etdim. Qizlarga "Mustahzod" qo'shig'iga raqs o'rganishimizni aytganimda, "Ustoz, shunaqa cho'zib aytiladigan qo'shiqqa raqs tushamizmi?" degan noroziliklar bo'ldi. Lekin kundan-kunga raqsning sehrli harakatlari ularni mahliyo qiladi. Bora-bora qizaloqlarim Yulduz Turdiyeva ijrosidagi "Mustahzod" qo'shig'iga jo'r bo'la boshladilar. Ota-onalar bilan kelishgan holda beqasaman o'zbek milliy liboslarini o'zim tikdim, zebigardon va tillaqoshlarni farzandim bilan birga yasadik.



Qizaloqlarim o'zbek milliy liboslarini kiyganlarida ko'zlari lov-lov yonib, jaji malikalarga aylandi. Shunda kechalari uxlamay bedorlikda qilgan mehnatlarim zoye ketmaganini ko'rib ich-ichimdan quvondim.

Ilk tadbirda 1-sinf o'quvchilarining o'zbek milliy qo'shig'iga raqs tushganini olqishlagan tomoshabinlarni ko'rib, quvonchimga quvonch qo'shildi. Bulardan ilhomlanib yana bir qator raqs sahna lashtirdik.

Tuman va viloyat tadbirlarida faol ishtirok etdik. To'garagimiz faoliyati kengaydi. O'quvchilarning qalbida shu qisqa vaqt ichida milliy raqslarga qiziqish uyg'ota oldim. O'z oldimga qo'yan maqsadim, ya'ni o'zbek milliy raqslari, qo'shiqlari, urf-odatlarini, qadriyatlariga muhabbat uyg'ota oldim, deb o'ylayman. Kelajakda ulardan Vatanimizni ulug'laydigan, o'z millati bilan faxrlanadigan, kerak bo'lsa buyuk bobokalonlarimizdek xalq uchun, millati uchun jonini ham fido qila oladigan mard yigit-qizlar yetishib chiqishiga ishonaman.

Ushbu innovatsion uslubimni kelgusida respublika miqyosida ommalashtirish niyatim bor. Mahoratli pedagog o'z oldiga maqsad qo'yar ekan, bu maqsad sari tinimsiz o'qib, o'rganib, izlanib, harakat qilmog'i lozim.

Qunduz KANIMQULOVA,
Chinoz tumanidagi
21-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ochiq gaplar

(Davomi. Boshi oʻtgan sonda.)

Hurmatli ukam Sayfiddin, Siz “katta ishda kichik kamchiliklarning oʻtib ketishi tabiiy hol boʻlganidek, bu nashrda ham texnik, imloviy va juzʼiy xatolar oʻtib ketgan” (108), deb yozibsiz. Sizday taqvodor odam qanday qilib Haq-u haqiqatdan yuz oʻgirib, bunday gustoh gaplarni yozyapsiz? Axir, Navoyi Toʻla asarlar toʻplamining, ayniqsa, xalq eng sevib oʻqiydigan “Hayrat ul-abror” hamda “Farhod va Shirin” dostonlari oʻrin olgan 6-jildidagi 132 baytda, baʼzi baytlarda 2-3 tadan xato bor-ku?! Shu – “katta ishda kichik kamchilik”, “texnik, imloviy va juzʼiy xato”mi? Yoʻq, bularning barisi matnshunoslik xatolari, Navoyi fikrlari maʼnolarini buzgan, magʼzi toʻq baytlar imoratini gʻorat qilgan xatolar. Undan sarkashlik qilolmayisiz. Yana bu birlamchi manbalar asosida tayyorlangan yangi nashr emas. Oʻzidan oldingi necha-necha mukammal nashrlardan koʻchirib bosilgan nashr. Hech qachon, hatto, mustabid sovet tuzumi davrida ham Navoyi asarlari bu qadar savodsizlarcha chop etilmagan. Chunki oldingi noshirlar haqqoniy mehnat qilganlar. Sizlar mehnat qilib asarlarni oʻzlaringiz nashrga tayyorlamagansizlar. Xatolarning tabiati shundan yaqqol dalolat berib turibdiki, 2006-yilda V.Rahmonov nashri asosida lotin imlosida chop etilgan “Xamsa” elektron varianti kompyuter dasturida kirill yozuviga oʻgirilgan (Aslida, bu – huquqiy nuqtayi nazardan ilmiy oʻgʻirlik, yaʼni koʻchirmakashlik deb tavsiflanadi). Oqibatda, “r” harfi “p”ga, “p” harfi “r”ga, “e” harfi “c”ga, “o” harfi “u”ga aylangan, lotindagi savodli matn kirillda savodsizlashgan. Biz maqolalarimizda yetarli misollar keltirganiz. Aynan shu kitob yaroqsiz, brak mahsulot sifatida nashr etilgani bilan keng doiradagi isteʼmolchilar (yaʼni, xalq ommasi) huquqiga ham xiyonat qilingan. Chunki oddiy kitobxonlardan tortib, mutaxassislarigacha uni sifatli va moʻtabar nashr deb oʻylab sotib olganlar va aldanganlar. Men ham shular qatoridaman.

Ustozingiz I.Haqqulov “OʻzAS”dagi bir maqolasida: “Navoyi 10 tomligini Turkiyadagi bir anjumanda sovgʻa qilganimizda, gulduros qarsaklar bilan kutib oldilar”, deydi. Demak, turk qardoshlarimiz ham aldanganlar. Albatta, zeb-u hashamli 10 ta yostiqlik kitob hadya etilsa (ayniqsa, uzoq ota yurtdan kelgan mehmon olimlar tomonidan!), har qanday joyda qarsak bilan kutib olinadi-da! Lekin kitobning ichidagi koʻrsavodlikni koʻrgan turklar oʻzbek matnshunosligining ahvoli toʻgʻrisida yuzi yaltiroq – ichi qaltiroq ekan degan fikrga kelishmasmikan? Sizing kasringizga butun oʻzbek matnshunosligi uyatga qolmasmikan? Qanday qilib shunday sernuqson kitobni “U hozirga qadar eng mukammal nashr boʻlib turibdi” (oʻsha bet) deb aytasiz? Xoʻsh, bu ziyatni qanday oʻnglaysiz, mullo Sayfiddin? Kitobdan sotib olgan 1000 nafar navoyixonning huzuriga, kutubxonalarga borib xatolarini tuzatib bera olasizmi? Yoki, aqalli, shu 6-tomning oʻzini qayta nashr etib, uni sotib olgan kitobxonlar va tashkilotlardan chalasavod nuxsasini terib olib, yangi, sahif matnli kitobni hadya etish qoʻlingizdan keladimi? Yoxud, yana ham osonroq yoʻli, xato ketgan mazkur 132 baytning tuzatilgan

shaklini kitobxonlardan uzr soʻragan holda biron ommaviy axborot vositasi orqali chop ettira olasizmi? Yoʻq, bu ishlarining birortasini qila olmayisiz. Bu haqda oʻylab ham koʻrmagansiz. Bunday iqrar va savob ishga boʻyingiz ham yor bermaydi. Aslida, Sizing vijdoningiz qiynalsa va qonun ustuvorligi barqaror boʻlsa, xalqimiz talabchan kitobxon boʻlsa, “Isteʼmolchilarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuniga binoan, Sizlar oʻz hisoblarigizdan shu oltinchi tomni qayta nashr etib, undan sotib olgan kitobxonlar(ularni aniqlab, topish ham dushvor!)ga bepul tarqatishingiz lozim. Shu haqda hech oʻylab koʻrganmisiz? Afsuski, bizning xalqimiz moʻmin-qobil, oʻz haqini talab qilishni bilmaydi sizlarning “baxt”ingizga.

Bir oʻrinda: “besh jildiga ustoz, besh jildiga kamina masʼul muharrir boʻldim” (oʻsha bet), deya faxrlanibiz. Muborak boʻlgʻay! Aytinch-chi, bir kitob 132 baytning har birida 2-3 tagacha xato ketgan boʻlsa, sizlar chindan ham masʼul muharrir boʻlgan boʻlasizlarmi yo masʼuliyatsiz?

Kitobning shuncha tekstologik xato bilan bosilib chiqishi Navoyi asarlari matnshunosligida katastrofa – halokat bilan barobar hodisa. Oʻzbek matnchiligi tarixida hech qachon bunday hol yuz bermagan. Shuning uchun kitobni oʻqib chiqish, xatolarini belgilash jarayonida bir mutaxassis sifatida larzaga keldim va darhol Adabiyot va sanʼat nashriyotiga yugurib borib, bosh muharrir Ilhom Zoyirni soʻroqqa tutdim: Qanday qilib nashrda bunchalar koʻp xato oʻtib ketdi? Rahmatli Ilhom Zoyir boshini sarasarak qilib nashr mualliflaridan nolidi:

– Aka, korrekturani oʻqinglar deb nashrga tayyorlovchilar va masʼul muharriri necha bora chaqirdim. Suyima Gʻaniyeva mening shogirdlarim bor, oʻshalar oʻqisin dedi. I.Haqqulov oʻqigani kelmadi. S.Rafiddinov oʻzi nashrga tayyorlovchilik qilgan tomlarini oʻqidi, lekin shu 6-tomni oʻqimadi. Qalam haqini olishga esa bir-biriga navbat bermay yugurib kelishdi. Har biri 10 million soʻmlab qalam haqi olishdi, – dedi. Demak, texnika oʻtkazgan xatolarni tuzatish imkoniyati boʻlgan. Lekin mehnatdan qochib tuzatmagansizlar.

Yana: “Keyinchalik aynan mana shu xatolarni imkon darajasida 10 jildlikning lotin imlosidagi nashrida tuzatib berganiz. Lekin negadir dono “yozar”lar bu haqda hech nima deyishmaydi. Aytishni xohlashmaydi ham. Bir ogʻiz soʻz bilan aytganda, ular xato qilishini kutib yashayotgan insonlar...” (oʻsha bet) deya iddao qilibsiz, mullo Sayfiddin. Avvalo, piching va haqorat qilmang, biz “yozar”lar emas, oʻzingiz kabi zahmatkash olimlarmiz. “Kuyib oʻrtanmish elning xoki”dirmiz. Ilim haqida madaniy tilda gaplashing. Ikkinchidan, siz ishora qilgan “Xato qilishingni kutarlar” gapini A.Oripov boshqa toifadagi odamlarga nisbatan aytgan. Siz shoir odamsiz, buni bilishingiz kerak. Bunday ishda xato qilishga haqqingiz yoʻq edi. Asli – bu xato ham emas – gunoh, xato bilan gunohning farqini siz yaxshi bilasiz. Sizing xato qilishingizni

kutib oʻtirishga vaqtimiz yoʻq. Muhim ishlarimiz boshimizdan oshib yotibdi. Uchinchidan, Sizing lotinda chiqargan kitobingiz kirilda chiqqan kitobga badal boʻla olmaydi. Yarimmillion soʻmga kirilcha nashri sotib olgan kitobxon yana shuncha pul sarflab lotinchasini ham sotib olmaydi va siz unga hadya etmayisiz. Toʻrtinchidan, nima uchun lotincha nashr haqida ham aynan biz yozishimiz kerak? Ishimiz kerak boʻlgani uchun dastlabki nashrdan olib oʻqiganimiz va u haqda yozganimiz. Hamma nashrlarni oʻqib, u haqda yozish bizning vazifamiz va majburiyatimizga kirmaydi, bunga ortiqcha vaqtimiz ham yoʻq. Men Navoyi Mukammal asarlar toʻplamining 3-tomi haqida maqola yozganimda, Navoyi asarlari nashrlarining har bir jildi haqida maxsus maqola yozilishi lozim deganman (N.Jumaxoʻja. Gʻaroyib chechaklar. “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasi, 1990-yil, 20-aprel soni). Lotincha nashrda xatolaringizni tuzatgan ekansizlar, bu haqda birinchi navbatda oʻzlaringiz ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka maʼlumot berishingiz kerak. Qolaversa, OʻzR FA Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori institutida va boshqa joylarda ilm daʼvo qilib yurganlar koʻp. Marhamat, yozishsin. Aslida, Navoyi 10 tomligi va boshqa mumtoz adabiyot nashrlarining har bir kitobiga taqriz yozib eʼlon qilish, ushbu ishni muvofiqlashtirish bevosita Siz ishlaydigan muassasa va boʻlim zimmasidagi vazifa. Oʻz vaqtda shu boʻlimning sobiq rahbari, marhum ustozimiz professor A.Hayitmetovning ilmiy tashkilotchiligi taʼsirida biz koʻplab kitoblarga taqriz yozganimiz. Ustoz boʻlimdan chiqqan biror kitobni taqrisiz qoldirmas edi.

Yana: “... ulugʻ shoirning oʻn jildlik asarlarini tanqid qilayotganlar” (oʻsha bet) debsiz. Gapingizda mantiq yoʻq. Biz Navoyi asarlarini tanqid qilganimiz yoʻq, nashr sifatini tanqid qilganimiz. Tanqid va malomat toshlari I.Haqqulovga qaratilgan degan fikrga zoʻr beribiz. Kechirasiz, sizday xudojoʻy odamga gapni bunday aylantirish, qayrash yarashmaydi. Biz Navoyini, ilmiy haqiqatni himoya qilib yozganimiz. I.Haqqulov va sizning oʻringizda boshqa odam boʻlganida ham, biz shu tahliliy maqolalarimizni yozgan boʻlar edik.

Yana: “Yozagʻonlar” shoʻro davrida tarbiya topgani uchun hech boʻlmasa, mafkuraviy nuqsonlardan xoli boʻlmasligi aniq! Buning ustiga, ular fors tilini bilsa ham, arab tilini, din ahkomlarini bilmaydi... uyalish kerak”, deb yozibsiz. Bunday past tushunchangiz va saviyangiz uchun, aslida, siz uyalishingiz kerak. Oʻzingiz toʻgʻri mafkuraviy mavqeda turganmikanisiz? Oʻzingiz shoʻrolar davrida tarbiya topmaganmisiz, mafkuraviy nuqsonlardan xoli emasmisiz? Yo siz jamiyatdan tashqarida (izolyatsiyada) yashaganmisiz? Davlat va jamiyatni, ilm-maʼrifatni, kerak boʻlsa, din ishlarini ham shoʻrolar davrida tarbiya topganlar boshqaryapti-ku? Shularning rahnamoligida mustaqillikka erishdik, davlat va jamiyatimiz baholi qudrat ravnaq topyapti-ku! Bizning arab tilini, din ahkomlarini qay darajada bilishimizni baholashga

oziqlik qilasiz, uka. Esizki, namoyishkorlik, xudnamolik, riyokorlikdan tap tortmaydigan boʻlib qolibsiz. Oldingi kamtarin va xokisor Sayfiddin qani?

Keyingi yozganlaringiz ham shundan dalolat berib turibdi. “Devoni Foni” boʻyicha qilgan ishlarigiz bilan maqtanibiz. Qadrlanmayotganidan nohibsiz. Qancha navoyishunos-u foniyshunos bor, baho bersin. Shaxsan men oʻz ishim yuzasidan Munisning bir qasidasi bilan Navoyi 10 tomligidan Navoyining “Hiloliya” qasidasini taqqoslayotib bildim. 20 tomlik Mukammal asarlar toʻplamida Fozila Sulaymonova juda koʻp xatolarni tuzatgan ekan, siz esa undan keyin atigi bitta soʻzni tuzatibiz. Shunga ham rahmat sizga.

2012–2016-yillar davomida ustozingiz rahbarligida “Navoyi qomusi” davlat loyihasi (granti) ustida ish olib borganlaringiz haqida ham chiroqli maqtanibiz. Bajarilish muhlati tugaganiga 5 yil boʻldi, qani oʻsha “Navoyi qomusi”? A.Hayitmetov rahbarligida yaratilgan ikki jildli “Navoyi qomusi” qoʻlyozmasi qayerda qoldi? A.Hayitmetov vafotidan keyin mablagʻlari oʻzlashtirilib, muhlatlari oʻtib ketgan qator davlat grantlaridan birortasini bajarib, kitob holida chiqarib yuzlaringiz yorugʻ boʻlganmi?

Ey Sayfiddinjon! Adolat, vijdon, halollik, mard-u nomardlik haqida ham behuda va oʻrinsiz yozgʻiribiz. Siz ilmiy va notiq odamsiz. Mard boʻlsangiz, katta maydonlarga chiqing. Oʻz inida turib “naʼra” tortadigan kishilarni “Xona sher-u maydon gʻarib” (“Oʻz uyida sher-u, maydonda zaif, qoʻrqoq” mazmunidagi fors-tojik maqoli) deydilar xalqda. Navoyi 10 tomligi haqida tanqidiy maqolalar chiqqaniga yillar oʻtib boryapti. Agar haq boʻlsangiz, nega Respublika matbuotiga chiqmaysiz? Marhamat, chiqing, haqligingizni isbotlang. Nobakor munaqqidlariga javob bering. Ilmiy asolab tanqidiy maqola yozgan hamkasblaringizni behudaga gʻarazgoʻylikda, noxolislikda, hasadchilikda ayblamang. “Basharang qiyshiq boʻlsa, oynadan oʻpkalama” degan naql bor. Ilmiy-adabiy tanqid ham oʻziga xos bir oyna. Siz chiqargan kitoblarni tahlil etib, ilmiy-tanqidiy maqola chiqargan mutaxassislarga ham oson tutmang. Ular sizlar otayotgan malomat toshlarini boʻyinlariga olib, shu maqolalarni yozganlar. Mamlakatimizda yuzlab ilmiy darajali mutaxassislar, oʻnlab navoyishunosman deb koʻksiga uradigan olimlar bor. Nega ular Navoyi, ilmning taqdiriga loqayd? Siz hamma shunday boʻlishini istaysizmi? Tahliliy, tanqidiy tafakkur, haqiqat uchun kurash oʻlsin-u, koʻzboʻyamachilik, oʻzim-boʻlaychilik gurkirab yashasini? Siz pesh qilayotgan din ahkomlarida shunday taʼlim-tarbiya berilganmi? Bitta-ikkita maqolaga chidamayapsizlar-a, shovvozar! Aslida, Alisher Navoyi 20 tomlik Mukammal asarlar toʻplami va 10 tomlik Toʻla asarlar toʻplami keng mutaxassislar doirasida muhokamaga qoʻyib, mazkur nashrlarni sinchiklab tahlil etib, tanqidiy baholab, milliy matnshunosligimiz taqdiriga najot izlash kerak edi. Afsuski, bunday ishlarini amalga oshiradigan Hamid Sulaymon, Aziz Qayumov, Abduqo-

bo'lsa, o'lmoq kerakmi?

dir Hayitmetovdek valloamat allomalar yo'q bugun. Bor bo'lsa-da, hal qiluvchi lavozimlarda emas. "Uzumning yaxshisini itlar yeb yuribdi". Aslida, Sizlar Navoyi 10 tomligi nashrida sodir etgan fojia milliy madaniy merosimiz, xalq manfaatlarini oldida jinoyat deb baholanishi va jazoga mustahiq etilishi lozim edi. Navoyining matnini xato ko'chiradigan kotiblar loyiq topilgan jazolar ifodalangan qit'asini eslang:

G'alat bitir kotib bobida qalam surmag-u qorasining g'alatin yuziga kelturmak

*Falon kotib ar xatni mundoq yozar,
Bu mansabdin ani qo'parmoq kerak.
Yuzin nomasidek qaro aylabon,
Qalamdek boshin dag'i*

yormoq kerak.

*Qarodin qarog'a beribon ulog,
Qalamravdin ani chiqarmoq kerak.
(G'aroyib us-sig'ar' devonidagi 46-qit'a).*

Navoyi matnini xato ko'chiruvchi kotiblarga nisbatan quyidagi jazolarni belgilagan: 1. Kotiblik mansabidan chetlatish. 2. O'zi yozgan xatiga o'xshab yuzini qora bo'yoqqa belash. Chunki xat-tot uchun tayyor matnini xato ko'chirish yuzi qoralik, sharmandalik. 3. Navoyi davridagi qamishdan yasalgan qalamning boshi, ya'ni uchi siyoh sizib chiqishi uchun shaq usulida yorib qo'yilgan. Xuddi shuningday, savodsiy kotibning boshini yorish. 4. Xuddi ko'pkariga qo'yilgan uloqday uni otga o'ngarib olib katta maydon aro yugurtirib xalq o'rtasida sazoyi qilish. 5. Mamlakat chegaralaridan chiqarib haydash, ya'ni badarg'a qilish.

Bunga zamonaviy milliy qonunchiligimizdan ham bemalol asoslar topish mumkin. Shunda birinchi jazo Navoyi dostonlari matnini shu ahvolga solgan gonguhkorlarni matn ishi bilan shug'ullanishdan chetlatish bo'lishi lozim. Lekin insof va andisha yuzasidan hech kim bunday talab bilan chiqayotgani yo'q. Sizlar bunga shukur qilishingiz kerak. Chunki bu sernuqson kitob tarixda qoladi. Bu yaroqsiz va brak mahsulotni hech qanday - na yirtish, na o'chirish, na yoqish, na ko'mish yo'li bilan yo'qotib bo'lmaydi. Zotan, u xalqqa va dunyoga tarqalib ketgan. Uni faqatgina huquqiy yo'l bilan rasman muomaladan chiqarish mumkin. Shunda ham u odamlar bisotida, jahon kutubxonalarida sizning "faoliyatingiz" namunasi sifatida saqlanib qoladi. Kelajakda ilmiy tadqiqotchilar Navoyi asarlari nashrlarining qiyosiy-tarixiy takomilini o'rgananglarida haqqoniy bahoni beradilar.

"Otang yerdur, sen ham yerdek qiliq qil"

Muhammad Abdullayev "O'tkir mushohada sohibi" sarlavhali maqolasida shunday yozadi: "Bir kun meni (I.Haqqulov) xonalariga chaqirtirib: "Mana bu maqolaga qarang, So'fi Olloyor bunaqa "Otang yerdur, sen ham yerdek (?) qiliq qil..." deb yozishi mumkin emas. Siz menga Sharqshunoslikdan

"Sabot ul-ojizin" kitobining toshbosmasi emas, qo'lyozmasini olib shu baytni ko'rib bering", - dedilar. Men bilag'onlik qilib: "Ibrohim aka, So'fi Olloyorning men ko'rgan kitoblarida shunday "yer" yozilgan, hatto Tojiddin Yolchig'il (tatar olimi) bu kitobga yozgan sharhida ham "yer" degan", - dedim. U kishi esa: "Yo'q, siz men aynganinni qiling", - dedilar. Xullas, o'zgina malolanib, qo'lyozmalar fondidan "Sabot ul-ojizin" kitoblar ro'yxatini ko'rsam, toshbosma 200 ga yaqin, lekin qo'lyozmasi atigi ikki dona ekan. Qo'lyozmani varaqlab, o'sha baytni topdim, qay ko'z bilan ko'rayki, "yer" emas, "er" deb yozilgan so'z turibdi. Darhol baytni ko'chirib, Ibrohim akaning xonalariga yurdim. Zukko olim baytni ko'rib: "Mening fikrim pand bermabdi, - deb jilmayib qo'yidilar-da, - Tojiddin Yolchig'il davri mustamlaka qilish davri bo'lgan, buni ham tushunish kerak", - deb, qo'shib qo'yidilar. Men shunda, Ibrohim akaning mushohadasiga qoyil qolganman va manbashunos sifatida bir oz xijolat chekkanman" (225).

Bu ham menga ko'hna bir bahs tarixini eslatdi. I.Haqqulovning menga tish qayrab yurgan, men bundan bexabar paytlar edi. Men ishlab yurgan ilmiy-ma'rifiy tashkilotda Xalqaro Ona-Yerni asrash kuniga bag'ishlab katta ilmiy anjuman o'tkazildi. Men unda ma'ruza qildim, ma'ruzam ilmiy to'plamda bosilib chiqdi. Ma'ruzam mazmunidan ko'proq odam bahramand bo'lishini istab, uni maqola shaklida tayyorlab "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasiga ham berdim. Maqolam "O'z AS"ning 2012-yil 20-aprel sonida "Ona-Yerni asrash - o'zlikni anglash" sarlavhasi bilan bosilib chiqdi. Men maqolada So'fi Olloyorning yuqorida keltirilgan satrini nashrlardan olib, "Otang yerdur, sen ham yerdek qiliq qil" shaklida berib, shu mazmunda talqin etganman. I.Haqqulov M.Abdullayevni chaqirib: "Mana bu maqolaga qarang" degani mening mana shu maqolam bo'ladi. I.Haqqulov mening maqolamni o'qib, talqinimni ko'rib, menga navbatdagi zarbasini berish uchun qulay topilmani qo'lga kiritgan xayolida va darhol qo'l ostida ishlaydigan manbashunos M.Abdullayevni chaqirib, So'fi Olloyor misrasining qo'lyozma manbadagi ko'chirmasini topib kelishni buyurgan. Holbuki, bizning oramizdan hali hech narsa o'tmagan edi (Mana, Sayfiddin, A.Oripovning "Xato qilishingni kutarlar" va "Vozajab, qay bir zot o'z umri qolib, mening qadamimni o'lchab yuribdi" satrlari mana shu vaziyatga aynan mos keladi).

I.Haqqulov meni xato qilgan gumon-sirab, o'zi xatoga yo'l qo'yadi. Mening maqolamga qarshi bir maqola yozib, o'zi ma'qul qilgan variantni asoslab, maqolasini "Til va adabiyot ta'limi" jurnaliga beradi. Nega "O'zAS"ga emas? Chunki u jurnalda "ustoz"ning maqolasini "be po'sht-po'sht" chiqaradigan yana bir gumashtasi ishlar edi. 2012-yili yoz oylarida Mirzo Ulug'bek tumanlararo fuqarolik sudida J. Haqqulov meni o'z maqolalarida haqorat qilganligi uchun javobgarlikka tortildi va kuzning oxirida sudning hal qiluv qarori mening foydamga chiqdi. TAI direktori qabulxonasida

"O'zbek tili va adabiyoti" jurnali tahrir hay'ati yig'ilishida javobgarlarning kechirim so'rash tadbiri o'tgach, men endi chiqib ketayotganimda, o'sha maqolasi bosilib chiqqan ekan, I.Haqqulov menga ikki marta tajovuzkor ohangda "Til va adabiyot ta'limi" jurnalidagi maqolamni o'qib qo'ying", dedi zarfa bilan. Sudda menga mag'lub bo'lgan, qonunan hozir jamoat oldida kechirim so'rashi majburiy bo'lgan, ammo so'ramagan bu odamga bir qarab, ichimda "Yiqilgan kurashdan to'yamas ekan" deb o'yladim-da, maqolasini o'qimaganim va ko'pchilikning hurmati uchun indamasdan chiqib ketdim. Keyin jurnalni topib, maqolasini o'qidim, yana boshqa maqolalarida ham shu dalilni dastak qilib yurgani haqida eshitdim va mavridi kelganida javob berarman deb tashlab qo'ydim. Hozir mavridi keldi, qisqacha javob berib o'taman.

Aslida, M.Abdullayevning I.Haqqulovga bergan javobi to'g'ri edi. Lekin negadir juda oson taslim bo'lgan. Unda qat'iyat yetishmagan. Shu dalil ham ko'rsatib turibdiki, I.Haqqulov matnshunos emas. Haqiqiy matnshunos olim dastuyori orqali sirdan ish tutmasdan, qo'lyozma manbalarni o'z ko'zi bilan ko'rib, tekshirib, undan keyin xulosa chiqaradi. So'fi Olloyor asarlari nashrlarini tayyorlagan mutaxassislar va "Sabot ul-ojizin" asariga sharh yozgan tatar olimi Tojiddin Yolchig'il ham asarning toshbosma nusxalari, qo'lyozma manbalarini ko'rgan, albatta. Mustamlaka davrining bu ishga hech qanday aloqasi yo'q. Ular ham o'tkir mushohada sohibi bo'lishgan. Baytni: "Otang yerdur, sen ham yerdek qiliq qil, Yamonlik aylanganiga yaxshilik qil", deb to'g'ri yozishgan. Matnshunos olim, filologiya fanlari doktori Rashid Zohidov ham o'zining So'fi Olloyor haqidagi doktorlik dissertatsiyasi va boshqa tadqiqot kitoblarida shu nuqtayi nazarni to'g'ri va asosililigini ilmiy jihatdan juda chuqur isbotlab bergan.

"Yer" so'zini "er"ga aylantirilsa, mantiq buziladi. Ota, albatta, er bo'ladi-da. Ota - er deyish - qo'chqor - erkak deganday gap bo'ladi. Xotin ota bo'lolmaydi-ku! Er bo'lgani uchun ham ota bo'lgan-da. Erligi, ya'ni erkakligi yo'q odam ota bo'lolmaydi. Jismoniy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham. Shuning uchun "Otang - erdur" deyishda mantiq yo'q. Mantiq shu yerdaki, har qanday ota - er, erkak, lekin har qanday ota - erning "yerday qiliq qilish", ya'ni xokisor bo'lish, hatto, yomonlik qilganiga ham yaxshilik bilan javob qaytarishga bo'yni yor bermaydi. Yassaviy ta'biriga ishoratan aytganda, o'zi tuproq bo'lib, olam uni bosib o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Izzat-nafsi, irodasi, erlik g'ururi yo'l bermaydi. Tasavvuf ta'limoti bo'yicha, o'zining izzat-nafsini, g'ururini yenggan, mag'lub etgan kishigina haqiqiy matonatli inson hisoblanadi. Har qanday er "yamonlik aylanganiga yaxshilik qil" olmaydi. Faqat yergina har qanday yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytaradi. Bu yerning Olloh tomonidan berilgan tabiatida bor. Olloh taolo yerning ana shu xususiyatlarini e'tiborga olib, Odam atoni yerdan, ya'ni tuproqdan yaratgan. So'fi

Olloyor ham odamzodning eng katta otasi tuproq, ya'ni yerdan bunyod etilganini nazarda tutgan.

To'g'ri, M.Abdullayev ko'rgan qo'lyozmada "yer" emas, "er" yozilgan bo'lishi mumkin. Lekin matnshunoslik ilmidagi "matn tahriri" degan tushuncha bor. Qo'lyozmani yozgan yoki asarni ko'chirgan kotib ham xatoga yo'l qo'ygan bo'lishi, bilib yo bilmay tahrir kiritgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Husayn Boyqaro saroyida "xattotlar sulhoni" degan nom olgan Sulton Ali Masha'diy ham Navoyi asarlarini ko'chirganda oddiy so'zlarni yozishda talay xatolarga yo'l qo'ygan-ku. Demak, faqat so'zning qo'lyozmada yozilganiga qarab to'g'ri hukm chiqarib bo'lmaydi. Ko'proq mantiq, ma'no va mazmun e'tiborida bo'lishi kerak.

Kitobda meni xijolatga qo'ygan yana bir qusurni aytmay o'tolmayman. Men kitobdan ko'chirib yozilgan ko'p kitoblarni ko'rganman va ular haqida ham tanqidiy maqolalar yozganman. Aynan bir kitobning o'zida bir-biridan ko'chirilgan maqolalarni endi ko'rishim. Men buni ataylab qidirib topganim yo'q. Kitobni to'liq o'qiganim uchun bo'lsa kerak, ko'zimga yaqqol tashlandi. Minba'd kitob chiqaruvchilarga saboq bo'lishi uchun aynganim ma'qul deb o'yladim. Filologiya fanlari doktori Shoiri Ahmedovning maqolasiga (178-185-betlar) rahmatli professor Oxunjon Safarovning "So'zni jahon bahrida durdona bilgan munaqqid" (46-56-betlar) sarlavhali maqolasidan bir necha jumla aralashib qolibdi. Aslida, bu holga faqat muallif aybdor emas. Mas'ul muharrir va ilmiy muharrir ushbu takrorlarni payqashi hamda bartaraf etishi lozim edi. Solishtirish uchun ikkala maqoladagi 49, 50, 51, 55, 56 - 181, 182-betlarni taqqoslab ko'ringlar.

"Ko'pdan quyon qochib qutulmas" deyildilar. Qanday qilib bunday kamchiliklar oltita olim - mas'ul muharrir, ilmiy muharrir, 2 ta taqrizchi, 2 ta to'plab nashrga tayyorlovchining nazaridan chetda qolgan? Yo bir-biriga ishonib, kitobni nashr jarayonida hech kim o'qib chiqmaganmi? Hurmatli ukam Ergash Ochilov, siz kitobga "Ilmga baxshida umr" sarlavhali juda ajoyib maqola yozibsiz. Siz zukko adabiyotshunos olim, nozik didi munaqqid, katta tajribaga ega muharrir, mehnatsevar insonsiz. Lekin ilmiy muharrir sifatida bu kitob uchun nima ish qildingiz? "Xususan, hozirgi kunda o'qimay yozish bir odatga aylandi" deb juda to'g'ri aytgansiz. Lekin bu kitob tajribasidan ayonlashadiki, o'qimasdan muharrirlik qilish, kitob nashr etish ham urf bo'lganga o'xshaydi. Ayniqsa, N.Boqiyning befayz va palag'da luqmasi kitobga husnbuzar bo'lib tushgan. Agar biz ko'rsatgan narsalar soqit etilsa, kitob mazmunan hech narsa yutqazmas va beg'ubor, beg'araz, bequsur, haqiqiy to'yona to'plam bo'lardi. Alisher Navoyi nomidagi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlaridan bundan keyin kitob chiqarishda hushyorroq bo'lishlarini so'rab qolamiz.

Nusratullo JUMAXO'JA,
filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoyi nomidagi
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
professori

Hamma ayb o'zimizda

Ishtixon tumani markazidan uncha olis bo'lmagan qishlog'imga otlandim. Mashinadagilar bir-birini uncha tanimasa-da, suhbat qizigandan qiziydi. Men ham beixtiyor quloq solaman. "Falonchining o'g'li piston joyda o'qiydi. O'qituvchilar zo'r emish", deya biri maqtansa, biri "Ey, qo'ysangchi. Bizda haligacha odam ajratishadi. Hattoki maktablarda ham kiyinishi, ota-onasining kimligiga qarab muomala qilishadi. Maktab ta'lim tizimi rivojlanmagandan keyin oliygohlar zo'r o'qitishiga ishonmayman", deya labini bujmaytirdi. Yana bir ayol esa "Ta'lim tizimimizda maqtangulik nima bor? "Yodla-qaytar" metodikasiga asoslangan, bolada kashfiyotchilikni rivojlantira olishmaydi, - deydi.

Ularning fikrlari meni o'yantirib qo'ydi. Uyg kelib, qishlog'imizning har xil sohalarida faoliyat olib boradigan kishilariga savol berdim: "Bizning ta'lim tizimiga qanaqa o'zgartirishlar kiritish kerak? O'zi biz ta'limni rivojlantirish uchun to'g'ri strategiya tuzyapmizmi?"

Chamasi 22 yoshlardagi talaba yigit o'zi o'qiyotgan universitetdan nolimashligini, hammasi yetarli ekanligini aytayti-yu, "buni yozmaysiz-a shunda rostini aytaman" deydi. Boshqa biri esa "Bizning ta'lim tizimimizda 2 narsa yo'q, bular ta'lim va sistema", dedi. Hayron qolmay ilojim yo'q. Yana bir o'qituvchi "Biz har bir bolaning bilim bo'lishini xohlaymiz va harakat qilamiz, ammo televideniye orqali efirga uzatilayotgan telefilmlar, internet tarmoqlaridagi ayrim videolar ular ongiga o'qimasdan ham mashhur bo'lish mumkin ekan, degan fikrni singirmoqda", dedi.

Boshim qotdi. Ayb ta'lim tizimidami, blogerlardami, televideniye-dami, bolalardami, o'qituvchilardami? O'ylab, o'ylab o'zim uchun javob topdim. Uyg hammamizda! O'qimayotgan bo'lsangiz ham, o'qisangiz ham, o'qituvchi bo'lsangiz ham, bo'lmangiz ham.

Ota-onalar, ta'lim tizimi yo'q bo'lsa, siz o'zingiz farzandingizga yo'qdan bor qilishni o'rgating, o'qituvchi ham bilar, axir o'z-o'zidan dars o'tmas. Odam ajratayptimi, demak siz vaqtida yaxshi o'qimangiz. Alloh barchamizni birdek yaratgan-ku, Stive Jobs ham boy bo'lib tug'ilgan. O'qing, o'qituvchidan nimadir kutmasdan o'zingizning ustingizda ishlab, farzandlaringiz uchun yaxshi sharoit yaratgan.

O'qituvchimiz? Sizdan ham ayb o'tgan. Qachongacha, "yodla-qaytar"dan voz kechmaysiz, bolaga shaxs sifatida qaramaysiz, dars berish metodikangizni o'zgar-

tirmaysiz, o'quvchida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash, birovning fikriga hurmatni shakllantirish kabi tushunchalarni ongigga joylashga harakat qilmaysiz. Obro'yingiz ko'tarilishi uchun jon-jahdingiz bilan bolalarga dars bering. Ulardan kelajakda mashhur insonlar chiqishi, siz uchun foydali emasmi?

Qayerga qaramang, televideniye-dami, radioda ham, boshqa joyda ham "ota-bobolarimiz" deymiz. Ming yil oldin o'tganlar bilan maqtanamiz. Xo'p, Beruniylar, Ulug'beklar, Ibn Sinolar ilmda o'z davri uchun katta ishlar qilgan. Kechirasiz, koronavirus yoki boshqa kasalliklarni ilmiy jihatdan tadqiq qilib, davosini topayotganlar Ibn Sino avlodlari emas, boshqalar. To'g'ri, tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, ammo faqat o'timish bilan yashagan insonning ham kelajagi yo'q. Ota-onalar, o'qituvchi va murabbiylar barchasi o'z qo'lingizda.



Ma'rifat

Yurtimizda imkoniyatlar ko'p, oliy ta'limda-da o'qish uchun faqat repetitorlarga borib, bilim olish kerak, degan stereotiplardan qochaylik. O'qituvchi bor bilimni o'quvchiga bersa, ota-ona bilim olishini farzandidan qat'iy talab qilsa, albatta, talaba bo'ladi. Bepul ta'lim olayotgan farzandingizdan hech narsa talab qilmaysiz-u, repetitora bors, pul to'lab, o'qityapman, o'qi deysiz? Har bir berilgan ne'matning o'z savol-javobi bor axir. Ulardan oqilona foydalanish darkor. Qachongacha aybni o'zimizdan emas, boshqalardan qidiramiz? Muammolaringiz bormi, deyishsa, qator muammolar sanaymiz-u, ularning yechimini topishga harakat qilaymiz!

Shahlo TOLLIBOYEVA,
O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

Milliy o'yinlar gashashi kerak

Og terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?

Ha, bu o'sha — olis bolaligimni yodga soluvchi xalq o'yini. Siz yana qanday o'yinlarni bilasiz? "Kesak qo'ydi" o'yinini eshitganmisiz? Bu o'yinda barcha yoshdagi bolalar ishtirok etishi mumkin. Yerga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. Bolalar, avval ularni diqqat bilan kuzatadi, so'ng esa, "bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, ketdi", deb sanaydilar. "Ketdi" so'zi kimga taqalsa, shu qatnashuvchi ko'zini yumib turadi. Davraboshi o'rtadagi biror predmetni yashirib qo'yadi. Ko'zi yumilgan bola o'sha predmet nomi va kimda ekanligini topishi lozim. Topa olmasa ishtirokchilarning talablariga binoan, she'r, topishmoq aytadi. O'yin shu tariqa davom etadi. Bu o'yin bolalarning xotirasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yoki bo'lmasa, "Solay-solay kimga solay, sochi uzun qizga solay" o'yinida qizlar davra bo'lib turadi. Davraboshi qo'lga mayda toshni olib, jamoadagi bir ishtirokchining kaftiga bildirmasdan soladi. Qolgan ishtirokchilar kimning qo'lida tosh borligini topishadi va topgan ishtirokchi bilan davraboshi o'rin almashadi. Bu o'yinning qiziq tomoni shundaki, davraboshi o'yin jarayonida unga mos she'r aytadi. Bu o'yin zamonaviy "Qopqon" o'yiniga ham o'xshaydi.

Buvijonlarimiz xotirasida, kitoblarda faqatgina nomi qolgan xalq o'yinlari talaygina: "Quloq-cho'zma", "Kamondan o'q otish", "Oq suyak", "Soqqa", "Beshtosh", "Podachi", "Charxpalak", "O'rdatop", "Chigi", "Qo'tir echki", "Lanka", "Yong'oq terish", "Lakat cho'g'on", "Chillak"... eh-he sanasangiz adog'iga ham yetmaysiz. Ammo bir o'ylab ko'ring-a, nega hozirgi kunga kelib qadimdan sport bilan tenglashuvchi milliy xalq o'yinlari yo'qolib bormoqda? Shunchalar zamonaviylashib ketdikmi yoki e'tiborsizlik natijasimi?

Siz qay birini yoqlagan bo'lardingiz: milliy o'yinlarni yoki kompyuter o'yinlarini? Kompyuter yoki telefon o'yinlari aniq dasturga asoslangan va hech qanday jismoniy mehnat talab qilmaydi. Endi tasavvur qilaylik, kunbo'yi kompyuter o'yin-

lari bilan band bolalarda deyarli harakat bo'lmaydi. "O'yinda yutsam bo'ldi", degan maqsad bo'ladi xolos. Milliy o'yinlar esa xilma-xil harakatlarga asoslanadi hamda shunga mos og'zaki savol-javoblarni bo'ladi. Folkloridan foydalangan holda qo'shiqlar aytiladi. Qo'shiqni o'yin davomida yodga olish bevosita xotirani ham sinaydi. Milliy o'yinlarimiz bilan ulg'aygan bola nafaqat jismonan baquvvat bo'ladi, balki aqlan rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga ham o'rganadi.

Hozirgi kun yoshlarining milliy o'yinlarni o'ynamasligiga yana bir sabab o'yinlardan mul-laqo bexabarligidir. Milliy o'yinlar targ'ib qilinishi kerak. Telekanallarda milliy o'yinlar haqida qisqa metrajli filmlar efirga uzatilsa, ayni muddao bo'lar edi. Shuningdek, reklamalar qatorida milliy o'yinlarga bog'liqlarining bo'lishi teletomoshabinlar qiziqishini yanada oshiradi. Buning yana bir foydali tomoni milliy o'yinlarni bola reklama orqali ham o'rganib, so'ngra takrorlashi mumkin. Maxsus o'rgatishga hojat yo'q.

Masalaning yana bir tomoni — milliy o'yinlar desa, biz faqat bahor kelsa yoki Navro'zda o'ynaladigan o'yinlarni tushunib qolganmiz. Aslida milliy o'yinlarning ko'pi fasl tanlamaydi. Bilmadim, agar Navro'z bo'lmasa, bu o'yinlarimiz o'ynalishi tugul, eslanmasligi ham mumkin edi. Bayram bahonasidagina milliy o'yinlarni eslab qolamiz. Xalqimizda varrak uchirish, sochni qirqta qilib o'rish faqatgina bahor, Navro'zdgagina qilinishi kerak, degan fikr paydo bo'lgan. Bunga sabab, oson narsaga o'rganish va biroz befarqlik, menimcha.

Milliy o'yinlarni tiklash, ularni yoshlar hayotiga keng joriy etish davlatimiz jismoniy tarbiya tizimining muhim vazifalaridan biri ekan, mas'ullarimizdan faollikni kutib qolamiz.

Shu o'rinda bir taklif: folklorshunoslar bilan dasturchilar hamkorlikda milliy o'yinlarga asoslangan dasturlar yaratishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. "Kontr", "Clash of clans" — turli xil urush, bir-birini o'ldirish kabi salbiy o'yinlar o'rninga milliylikni, o'zimizning xazinamizni singdirsak har holda yomon bo'lmasa kerak.

Dilafro'z ABDURAJABOVA,
ToshDO'TAU talabasi



Kecha va kunduz. Bu jumla orqali odatda shunchaki bir kun nazarda tutiladi. Ammo shu birgina jumla bilan juda katta ma'noni ham ifodalash mumkin ekan. Men buni Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'iponning shu nomli romanini o'qigach tushunib yetdim...

Cho'iponning orzusi

Roman 1934-yilda yozib tugatilgan bo'lib, u ikki qismdan iborat. Birinchi qism voqealari 1910-1916-yillarda ro'y beradi. Mazkur asarida adib o'zbek xalqining o'sha yillardagi aynanchi hayot tarzini badiiy gavalantirishga harakat qiladi. Zebi obrazni orqali Turkistonning adolatsizlikka, zulmga, jaholat va haqsizlikka to'la taqdirini ochib berishga urinadi. Ya'ni, asardagi Zebi taqdiri, aslida Turkiston taqdiri edi.

Romanning birinchi qismiga, ya'ni "Kecha"ga "Hamal keldi — amal keldi" o'zbek xalq maqoli epigraf qilib olingan. Bu bejiz emas. Biz yaxshi bilamizki, hamal — eski hisobda bahorning birinchi oyiga to'g'ri keladi. Asardagi Zebining hayoti ham mana shunday bahor bilan boshlanib, keyinchalik qishga aylanib ketadi...


Men asardagi Akbarali mingboshini odam qiyofasidagi itning timsoli deb bilaman. Miryoqub esa boshida salbiy obraz edi. Lekin keyinchalik jadidlarning ta'siri ostida o'zi ham jadidga aylana bordi. Ruhaniy uyg'onib, o'z xalqiga mehr qo'ydi.

Asarning ikkinchi — "Kunduz" qismi bizgacha yetib kelmagan. Balki Cho'ipon uni yozishga ulgurmagani bo'lishi mumkin. Adabiyotshunoslarning yozishicha, "Kunduz"da taxminan Zebining Qrimga yuborilishi, Miryoqubning esa qaytib kelib, jadidchilik bilan shug'ullanishi yozilgan bo'lishi kerak. Har kechaning kunduzi bo'lganiday, Cho'ipon ham o'z asarini yaxshilik bilan tugatishni istagan va shuning uchun ham uning nomi "Kecha va kunduz"dir. Va bu istak, to'g'rirrog'i asarni yaxshilik bilan tugatish istagi yurtning mustaqillikka erishish orzusi bilan ham uyg'unlashib ketadi. Cho'ipon "Kunduz" deganda Zebi taqdiri orqali aynan yurtning mustaqillikka erishishini ifodalamoqchi bo'lgan, albatta...

Agar mana shu taxmin to'g'ri bo'lsa, Cho'ipon o'z romanining "Kunduz" qismini yozolmagani tabiiy. Axir u o'z yurti mustaqilligini — kunduzni ko'ra olmadi. U yashagan davr kunduzsiz kechalardan iborat bo'ldi...

Barcha tengdosh kitobxonlarga ushbu asarni o'qishni, o'qiganda ham tushunib, asardagi millat dardi va iztirobini chin yurakdan his etib o'qishni tavsiya qilib qolaman.

Zohid NORMO'MINOV
Qamashi tumanidagi
24-maktabning 9-sinf o'quvchisi



Qo'ng'iroq chalinguncha

Iste'dod

— Juda aqllisiz-da! Olloh sizga shunday noyob iste'dod bergan...

Salim To'ychiyevich hozirgina majlisda mukofot olgan yosh yozuvchiga og'zi tinmay gapirar, yozuvchi esa yuzida kulib tursa ham, ichida bu odamni tanilolmay hayron edi.

— Bilasizmi, men jahon adabiyoti vakillarining ko'pini bilaman, ularning asarlarini o'qirkanman, "bizda ham shunday buyuk adib-u shoirlar o'tgan va bundan keyin ham yetishib chiqadi", degan fikr xayolimdan o'tadi. Mana bugun siz taqdirlandingiz va bu mukofot aynan sizga berilganidan juda xursandman. Negaki, sizda ham o'sha dunyoga mashhurlardagidek iste'dod bor...

Salim To'ychiyevich hech gapini tugatay demasdi. Lekin barcha gapining ma'nosi: "Mukofot olganingizdan xursandman!" Har holda yozuvchi shunday

deb o'ylardi. Eshikka yaqinlashganda: — Endiiii, ukam, gapning indallosini aytadigan bo'lsam, bir iltimosim bor. Mening ham siz tengi qizim bor. Juda aqlli, hech tinmaydi, o'qigani o'qigan. Xudoga shukr, uning ham o'ziga yasha iste'dodi bor: she'r yozadi. Mana, bir eshitib ko'ring-a. Shunday deb, Salim To'ychiyevich xirqiroq ovozdallaqanday she'rni juda berilib o'qidi. Aslini olganda, buni she'r ham deb bo'lmasdi, lekin Salim To'ychiyevichning ovozi she'rning oldida chiroylimidi yoki she'r Salim To'ychiyevichning ovozi bilan taqqoslaganda chiroylirorqimidi, har holda yozuvchi uni matonat bilan eshitdi. She'rni tugatgach, u "qalay, zo'rmi" deganday iljaydi.

— Mana, eshitdingizmi? Xullas, shu qizim kitobini chiqarmoqchi. Lekin bu uning ilk kitobi bo'lgani uchun

kimdir taqriz yozishi kerak. Aynan shunga yordam bersangiz, degandim, uka. Yozuvchi biroq o'ylab: "Yaxshi, lekin men yozuvchiman. Baribir she'rni shoirlardan so'rash kerak. Har ishni o'z egasi qilgani tuzuk. Bundan tashqari, asarga taqrizni uncha-buncha odam yozolmaydi". Yozuvchi uyog'iga nima deyishni bilmay, Salim To'ychiyevichga qaradi. Uning yuzi esa bir lahzada o'zgardi: Xullas, "men taqriz yozmayman", demoqchisan-da. Mayli, sen bo'lmasang, boshqasi-da. Nima ham qilardik. U xayr-ma'zurni ham nasiya qilib, eshikdan chiqib ketdi.

Oradan ikki-uch soat o'tgach, yozuvchi qog'oz qoralab o'tirganida qo'shni xonada o'zi tengi bir shoir maqtovlarga yog'ilayotgan edi: "...sizda ham dunyoga mashhur insonlardagidek iste'dod bor..."

Jasmina RAHMONTALIYEVA,
Buvayda tumanidagi
2-IDUMI o'quvchisi

*Jalil domla bo'lib hayron
Alang-jalang qilar har yon.
Ha, inkoni bo'lganida
Hech ham kelmas edi bu yon.
Indamadi, so'ng burilib
Xonadan tez chiqdi ketdi.
Kotiba yelib-yugurib,
Uni qayta boshlab keldi.
Talashdilar, tortishdilar,
Keyin esa kelishdilar...
Fikrlar bir joydan chiqdi,
Boshliq ham sal pastga tushdi.
Boshliq "Moddiy yordam"ining
Choragiga ko'nar bo'ldi.
Va nihoyat Jalil domla
Og'il tomin yopar bo'ldi.
Jalil "Moddiy yordam"ini
To'liq olgani haqida
Ikki enlik oq qog'ozga
Tilxat ham yozib ulgurdi!
Jalil domla bekor qildi...
Endi har gal majlislarda
Jamoaga gap bo'ladi,
Qurib ketsin og'ili ham!
"Moddiy yordam" bo'lsa zarur
"Birozgina" saxiy bo'ling.
Mushkulingiz oson bitur,
Tengjaraga rozi bo'ling!*

Ilk muhabbat

"9"-A sinf o'quvchisi Zarina algebra fanidan topshirilgan uy vazifasini bajarishga taraddudlanib, sumkasidan daftarini olgan ham edi, uning do'mpayib turganini fahmladi. Algebra daftari orasiga kimdir to'rt buklog'liq xat qistirib qo'ygan ekan. Zarina hayron bo'lib qog'ozni yoyib o'qishga tushdiyu, rangi oqarib ketaverdi. "Zarina" deb boshlangan xat "Men seni sevaman. Said" degan bitik bilan tugallangandi.

Zarinaning ichiga qo'rquv tushdi. Butun vujudi qaltirab, oxiri yig'lab yubordi.

"Endi sharmanda bo'laman" — shu o'y tinchlik bermadi.

Kelib-kelib jini suymaydigan naynov bolaning sevgi maktubi yozgani alam qilgandi unga. Bir muddat ko'zyoshlariga g'arq bo'lib o'tirdi-da, so'ng es-hushini yig'ishtirib oldi. Xatni to'rt buklab, sumkasi cho'ntagiga soldi. Nafrati olov olayotgan, butun o'y-xayoli qing'ir-qiyshiq yozilgan xatu naynov Saidda bo'lsa-da, o'zini majburlab uy vazifasini bajarishga tutindi. Algebra daftari varaqlab, "Uyga topshiriq" deb yashil rangda yozilgan joyga to'xtalganda, tag'in hayron bo'ldi. U hech qachon yashil pasta ishlatmasdi. Chappa tomon bir-ikki varaqlagan edi, ora-sira yana yashil rangda yozilgan bitiklarga duch keldi. Jon halpida daftarning ilk varag'ini ochdi. Ochdiyu birdan bo'shshib ketdi.

"Ovsar adashimey, mening daftaringni o'ziniki xayol qilib sumkasiga solganini-chi?"

Ilkis Zarinaning xayoliga 8-martdan bir kun avval sinfdagi hamma qizlarga bittadan umumiy daftar va komplekt ruchka ulashib chiqqan Said keldiyu kulib yubordi, so'ng bexos shu so'z lablari orasidan uchib chiqdi:

— Anqov.

Qo'lsoat

Palatadagi o'spirin qiz Zamiraga ertaga javob beradigan bo'lishdi. U o'zini davolagan vrach Beknazir Axtamovichdan o'la-o'lguncha minnatdor. Axir oshqozonini operatsiya qildi-ya...

Bugun shu vrachning tug'ilgan kuni. Zamira kecha onasi bilan sovg'a borasida uzoq maslahatlashib, oxiri qo'lsoat tuhfa qilishga qaror qilishdi.

— Beknazir Ahtamovichning qo'llari dard ko'rmasin. Yaxshisi, u kishiga qo'lsoat sovg'a qilaqol. Shunday chaqqon bilakka qo'lsoat yarashmasinmi axir?— dedi onasi. Zamira bu gapni ma'qulladi.

Zamira chiroyli, bezatilgan qutiga solig'liq qo'lsoatni olib Beknazir Axtamovich bo'lmasi tomon yurdi. Bo'lma eshigi berk ekan. Bir-ikki chertib, uning nomini aytib chaqirgandi, ichkaridan kiravering degan ovoz keldi.

Zamira ostona hatlab vrachga salom berdi. U orqa o'girib o'tirar, nimadir qilayotgandi.

— Sizni tabriklash uchun keldim. Arzimasam ham mana shu sovg'amni oling, iltimos, — dedi Zamira vrachga yaqinlasharkan va tuyqus rangi dokaday oqarib ketdi. Vrachning chap bilagi protez edi.

Umid ALI

"Moddiy yordam"

*Jalil domla yozgi ta'til
Belbog'ini mahkam tugib,
Sigir uchun soldi og'il,
Ayvoniga tutash qilib.
Yoniga terdi, g'isht ham quydi,
Tizzagacha kechib loyga.
To'ng'ichi g'isht otib turdi,
Devori ham bo'ldi tikka.
Yosh ellikdan oshganida
Qiyin bo'lar ekan biroq.
Guvala ham kattagina,
Og'ir bo'lar ekan lo'mboz.
Ha maylida, hechqisi yo'q.
Asosiyi, devor bitdi.
Og'ilining tomin o'ylab
Jalil domla boshi qotdi.
Ta'til pulin shiferga deb,
Mo'ljal qilib turgan edi.
Narx-u navo bir silkinib
Mo'ljalidan og'ib ketdi.
Qarzga betlay demas yurak,
Bermog'ini o'ylash kerak.
Jalil o'ylay-o'ylay topdi,
Ishxonasi tomon chopdi.
Boshliq unga zimdan boqib
Bosh silkidi, hol so'radi.
Jalil domla boshin egib,
Vaziyatni sekin aytdi.
Ayni paytda "Moddiy yordam"
Zarurligin qiyin aytdi.
Boshliq yerga qarab qoldi,
Qabog'ini uyib oldi.
O'ylab ko'rishini aytdi,
Keyin kelishini aytdi.
Hafta o'tib xonasida
Boshliq sipo kutib oldi.
Muddaoga sekin o'tdi,
Tengjarasin olar bo'ldi.*

Korrupsiya

*Korrupsiya deymiz, jinoyat deymiz,
Falsafa so'qiyimiz vijdon haqida.
Jamiyatning ba'zi illatlariga
Yo'l ochib beramiz biz ham gohida.*

*Bog'chaga borishsa o'g'il-qizimiz,
"Opa"larni tez-tez yo'qlab turamiz.
Bunga zaruriyat bo'lmasa ham biz
Sovg'a-salomlarni hadya qilamiz,*

*Maktab, o'qish qolib, jiddiy masala —
Tadbirlarga eng zo'r reja tuzamiz.
Ortin o'ylamaymiz, qilmay hafsala,
Obro', kimo'zarga pul sovuramiz.*

*Yo'llarimiz tushsa shifokorlarga,
Maslahatin olib, aytamiz rahmat.
Qo'l haqqin bermasak "najotkor"larga,
Vijdon qiynaladi, qanchalar dahshat.*

*Oliygo'nda o'qish, ishga joylashish,
Ulov xarid qilish navbat kutmasdan.
Ko'ngil esa ko'proq, ko'proq istaydi,
Muammo hal bo'lmas
"shapka" tutmasdan.*

*Hammasini ko'rib, bilib turamiz,
Keyin va'z to'qiyimiz vijdon haqida.
Jamiyatning shunday illatlariga
Yo'l ochib beramiz biz ham aslida...*

Bahodir MELIBOYEV,
Baxmal tumanidagi
5-maktab o'qituvchisi

Elda aziz

Pedagoglar ustozlari 75 yoshda!

Ustoz – jamiyatni kelajakka yetaklovchi va uning ertangi kunini ta'minlovchi yo'lchi yulduzdir. Alisher Navoiy aytganlaridek, dunyoning bor boyluk va xazinasi bilan ham ustozlarning oiljanob mehnati haqqini ado etib bo'lmaydi.



Risboy Jo'rayevdek har bir yosh avlodni o'z farzandidek ardoqlab, ular tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar tom ma'noda fidoiy kasb egasi, o'zbek xalqining jonkuyar ziyolisi, ma'rifatparvari va ustoz-olimning yorqin timsoli sifatida e'tirof etib kelinaadi.

Uning hayoti va faoliyatiga nazar solsak, halol mehnat hamda mustahkam iroda tufayli inson qanday ulug' darajaga erishishi mumkinligini yaqqol ko'rish mumkin. R.Jo'rayev hayot va ijod yo'lida qancha to'siq va qiyinchiliklar bo'lmasin, barchasini mardonovar va fidokorona mehnati bilan bartaraf qilishga muvaffaq bo'lgan. U mehnat faoliyatini 1968-yili Toshkent politexnika instituti (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti)da o'qituvchilikdan boshlagan. Pedagogik faoliyatining ilk davrlaridan boshlab, o'zbek yoshlarini ilm-ma'rifatga safarbar qilish, xalqimizning buyuk o'timishini targ'ib qilish, milliy ta'lim tizimini mustahkamlashga xizmat qila boshlagan. Uning yurtimizdagi yoshlarni ziyo yo'lga yetaklashi, xalqimizning boy merosini yuzaga chiqarish yo'lidagi harakatlari oson bo'lmagan.

Ustoz 1975-yildan O'zbekiston Fan va o'quv yurtlari bo'limi instruktoriga, 1977-yildan Respublika hunar-texnika ta'limi Davlat qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari, 1987-yildan mazkur qo'mita raisi, 1988-yildan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining o'rinbosari, 1989-yildan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Fan, madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash" bo'limi mudiri, 1989–1992-yillarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi madaniyat, xalq ta'limi

va sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'i, 1992–1998-yillarda Guliston davlat universiteti rektori, 1998–2000-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi markazida vazirning birinchi o'rinbosari, 2000–2004-yillarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri, 2004–2009-yillarda T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika ilmiy tadqiqot instituti direktori kabi mas'uliyatli lavozimlarda ishlagan.

2009-yildan bugungi kungacha O'zbekiston Pedagogika ilmiy tadqiqot instituti bo'lim mudiri, "Uzluksiz ta'lim" jurnali bosh muharriri lavozimida ishlab kelmoqda. U respublikamizning nufuzli ilmiy-pedagogik nashrlari: "Xalq ta'limi", "Maktab va hayot", "Kasb-hunar ta'limi" jurnallari tahririya a'zosi sifatida ushbu nashrlarning saviyasini oshirishga hissa qo'shib kelmoqda. Shuningdek, R.Jo'rayev 1993-yildan Xalqaro Pedagogika fanlari Akademiyasining muxbir a'zosi, 1997-yildan Rossiya Kasbiy ta'lim Akademiyasining akademigi, Xalqaro A.G.Nebolsin mukofoti laureati bo'ldi.

Ustoz qayerda ishlamasin, ilm izlashdan to'xtamagan va ta'lim sohasini boshqarish bilan birga, ilmiy izlanishlarini ham davom ettirgan. U 1971-yili esa doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. 1996-yili professor ilmiy unvonini olgan bo'lsa, 2017-yil 30-dekabrda e'tiboran O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi etib saylangan.

R.Jo'rayevning ilmiy tadqiqot ishlari kadrlar tayyorlash milliy modeli, iqtidorli yoshlarni izlash, aniqlash va ularni maqsadli tayyorlashning tashkiliy va ilmiy-uslubiy ta'minotini yaratish, ta'lim

va mehnat bozori munosabatlari monitoringi hamda ularning uyg'unligini ta'minlash, ta'limni axborotlashtirish tizimlarini rivojlantirish va ishlab chiqarishga innovatsiyalarni joriy etish, o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish va joriy etishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi doirasida o'quv jarayonining ilmiy va o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirish, pedagogik fanlar tizimi va ularni integratsiyalash muammolarini tadqiq etish, yosh avlodni tarixiy milliy va umuminsoniy qadriyatlarini uyg'unlashtirish asosida tarbiyalash muammolarini o'rganish, ta'lim va tarbiya sohasida mavjud ilg'or tajribalarni o'rganish, jahonning yetakchi ta'lim muassasalari bilan almashuv dasturlarini yaratish va amalga oshirish kabi yirik ijtimoiy-pedagogik muammolarni tadqiq qilishga qaratilgan. Uning bevosita rahbarligida 70 ga yaqin monografiya, darslik, o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etilgan. 600 dan ortiq ilmiy-metodik maqolasi respublikamizning nufuzli jurnallari va ilmiy to'plamlarida, 25 maqolasi xorijiy davlatlar jurnallarida chop etilgan.

R.Jo'rayevning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tahlil qilib, u respublikamizda pedagogika sohasida gumanizm va innovatsiyaga asoslangan yangi ilmiy maktab yaratdi degan xulosaga kelish mumkin. Ustozning ilmiy rahbarligida 30 ga yaqin fan nomzodlari va doktorlari dissertatsiya ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilib, olimlik darajasi va unvonlariga sazovor bo'lgan. Uning yoshlarga, shogirdlariga va qo'l ostida faoliyat olib borayotgan xodimlariga nisbatan ko'rsatayotgan beg'araz maslahat va yordami kishi qalbini to'lqinlantirib yuboradi. Turli rahbarlik sohasida orttirgan tajribasini mamnuniyat bilan o'rtoqlashib, yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishi va qo'llab-quvvatlashi tahsinga sazovordir. Uning samimiyligi, kamtarligi, sahovat-peshaligini alohida e'tirof etishni o'rinni deb hisoblayman.

R.Jo'rayev tashabbuskor rahbar sifatida xalq ta'limi tizimida yangi va zamon talablariga mos umumiy o'rta ta'lim maskanlarini barpo etish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash, ularni o'quv-laboratoriya jihozlari va komputer uskunalarini bilan ta'minlash, ta'lim sifati va mazmunini takomillashtirish, bolalar sportini rivojlantirish kabi samarali ishlarni amalga oshirishda faol ishtirok etdi. Uning bevosita rahbarligida umumiy o'rta ta'lim maktablari to'liq inventarizatsiya qilinib, pasportlashtirilgan va hududiy loyihalari shakllantirilgan. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari reorganizatsiya qilinib, kafedralar tashkil etildi. Bundan tashqari, R.Jo'rayevning rahbarligida respublikamizda ko'plab fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar bajarilgan.

Ustozning Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti faoliyatini rivoj-

lantirishdagi harakatlari juda qadrlandi. U mazkur institutga rahbarlik qilgan davrlarida institutning moddiy-texnika bazasi takomillashti, yangi bino qurilib, xodimlar uchun ilmiy-ijodiy muhit yaratildi. Xodimlar o'rtasida ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligi oshdi, maxsus ilmiy kengash samarali faoliyat ko'rsatgani tahsinga loyiq edi. Bundan tashqari, O'zbekistonda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini hamda Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi o'quv dargohlari ning islohotchilaridan biri bo'lgan qalbi keng ustoz qariyb yarim asr mobaynida shogirdlarga o'z bilim va malakalarini o'rgatib kelmoqda. Uning yoshlarimiz uchun ibrat bo'la oladigan hayot yo'li, ilmiy va ijodiy faoliyati uzluksiz ta'limning xalq ta'limi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi rivojiga alohida e'tibor qaratdi.

Olimning fidokorona mehnati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan: "Mehnat shon-shuhrati" medali (1981), "Mehnat Qizil bayroq" ordeni (1986) va "Do'stlik" ordeni (2003), Mehnat faxriysi ko'krak nishoni (2021) bilan mukofotlangan. Kasbiy ta'limni rivojlantirish va rag'batlantirish xalqaro jamg'armasining A.G.Nebolsin mukofoti laureati (1999) bo'lgan. 2021-yil 19-aprelda O'zbekiston faxriylik instituti ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi Vasiylik kengashining farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining bir guruh akademiklari va olimlari faxriy davlat mukofoti bilan taqdirlandilar. Ular orasida akademik R.Jo'rayev 1-darajali "Mehnat Faxriysi" ko'krak nishoniga sazovor bo'ldi.

Ustoz bugungi kunda ham kuchg'ayratga to'lgan, katta shijoat bilan ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirmoqda. U hozirgi kunda respublikamiz pedagoglari orasida yagona akademik hisoblanadi. R.Jo'rayevning: "Har bir ota-ona, har bir xonadon, har bir mahalla, bugungi kunda farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bilib, yoshlarni zararli bo'lgan salbiy ta'sirlardan himoya qilish, millat va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga ko'rsatishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashi ham qarz, ham farzdir. Zero, inson hayoti odob-axloq, ta'lim-tarbiya bilan bevosita bog'liq", – degan fikrlari barchamiz uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Risboy Jo'rayev kabi olimlar timsolida davlat rahbarimiz nazarda tutgan Uchinchi Renessans poydevorini qurish yo'lida yoshlarga namuna bo'ladigan va ularni birlashtira oladigan ilm egasini ko'rishimiz mumkin. Zero, ilm – eng fazilatli amal, ikki dunyo saodatining kalitidir.

Alisher UMAROV,
Toshkent davlat pedagogika
universiteti rektori,

Barno ABDULLAYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti
ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektori,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Boshlang'ich ta'limda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning imkoniyatlari mavjud.

Ta'lim uyg'unligi sari

O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim tizimida milliy va xorijiy tajribalarni uyg'unlashtirish qilish hamda mazkur uyg'unlik asosida o'qitishni tashkil qilish jarayoni kechmoqda. Bunda asosiy masalalardan biri ilmiy tadqiqotchilikni kuchaytirish hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlar muammosini o'rganib borish va ularning yechimini topish ana shunday samarali va amaliy ilmiy tadqiqotchilik turlaridan biridir.

Pedagogik konfliktlar – bu ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan tabiiy hodisa bo'lib, ularni o'rganish va tahlil qilish ishiga mamalakatimizda keyingi yillarda kirishildi. Bu borada pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Mukarram Ahmedovanning sa'y-harakatlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Pedagogik konfliktlarning ijobiy xususiyati shundaki, u ta'lim ishtirokchilarini faollashtiradi. Mazkur hodisaning salbiy jihati shundaki, ta'lim ishtirokchilari o'rtasida vaqinchalik ziddiyatli munosabatlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli pedagog olimlar va mutaxassislar pedagogik konfliktlarni o'rganish, kuzatish va ularning sabablarini aniqlash masalasiga jiddiy e'tibor beradi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar va ularning xususiyatlari

keyingi yillarda biz tomonimizdan tadqiq etilmoqda. Tadqiqotlarimizning dastlabki natijalariga ko'ra, boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarning quyidagi turlari uchraydi:

- ✓ o'quvchilar shaxsida kechadigan vaqinchalik ruhiy ziddiyatlar;
- ✓ o'quvchilararo kechadigan mud-datli kelishmovchiliklar;
- ✓ o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida kechadigan vaqinchalik tushunmovchiliklar;
- ✓ o'quvchi va ota-ona o'rtasida kechadigan ziddiyatlar.

Boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlarning bu turlari vaqinchalik xususiyatiga ega bo'lib, ko'p hollarda ularning yuzaga kelishiga o'qituvchi yoki ota-onalar sababchi bo'lishadi. O'quvchilar rivojlanish

bosqichida bo'lganligi sababli juda kam hollarda pedagogik konfliktlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Bunga sabab o'quvchilarning "Men" tuyg'usining shakllanayotganligidir. Shu sababli biz boshlang'ich ta'limda yuzaga keladigan konfliktlarning sabablarini katta yoshlilar munosabatlari va harakatlardan izlash tarafdorimiz.

Boshlang'ich ta'limda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning imkoniyatlari mavjud. Bizning kuza-tishlarimizga ko'ra, bunda quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- ✓ boshlang'ich ta'limda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarning ko'lamini, hajmi va turlarini aniqlash;
- ✓ pedagogik konfliktlarning yuzaga kelish sabablarini o'rganish;
- ✓ pedagogik konfliktlarni bartaraf etish usullarini belgilab olish;
- ✓ pedagogik konfliktlarni bartaraf etish ishiga ma'faatdor hisoblanuvchi o'qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillarini jalb etish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni shov-shuvsiz va xolis bartaraf etish im-

konini beradi. Chunki bartaraf etilayotgan pedagogik konfliktlar o'quvchilar manfaatiga xizmat qilishi kerak va bunda o'quvchining haq-huquqlari ustuvor bo'lishi lozim.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning usullari ko'p. Biz bunday usullardan quyidagilarni samarali deb hisoblaymiz:

- ✓ murosas qilish;
- ✓ o'quvchilarni tushunish va ularning manfaatlarini ustuvorligiga amal qilish;
- ✓ konfliktlar yechimiga o'quvchilarning o'zlarini jalb etish;
- ✓ konfliktlar yechimida pedagogik va psixologik qonuniyatlarga amal qilish.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv boshlang'ich ta'limda uchraydigan pedagogik konfliktlarni kutilgan darajada bartaraf etish imkonini beradi.

Tadqiqotimiz davomida biz ko'p hollarda o'quvchilar bilan suhbatda bo'ldik va bunday yondashuv konfliktogenlarining oldini olishda qo'l kelishiga guvoh bo'ldik. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin bildirishi bilan pedagogik konfliktlarning sabablari va ularning ko'lamini to'g'risida tushuncha beradi. Biz uchun aynan mana shu jihat muhimdir.

Zuhra UMAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
o'qituvchisi

Masharipova Gularam Kamilovnaning 09.00.03 — Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha "Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy merosining ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri" mavzusida (falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 26-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti 511-xonada o'tkaziladi. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: devonxona@nuu.uz, nauka@nuu.uz

Xidirov Mustafoyev Mustafovichning 09.00.01 — Ontologiya, gnoseologiya va mantiq ixtisosligi bo'yicha "Dunyoning ezoterik manzarasi va uning evolyutsiyasi" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 26-iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti 511-xonada o'tkaziladi. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: devonxona@nuu.uz, nauka@nuu.uz

Borasulov Akmal Mirayimovichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Bo'dringning kompleks qimmatli xo'jalik belgilariga ega nav va F1 duragaylar seleksiyasida yangi germoplazmadan foydalanish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/27.02.2020Qx.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti. Tel/faks: (78) 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Ortiqova Nargiza Akramovnaning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida siyosiy elitani shakllantirish jadal taraqqiyot omili sifatida" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.20/13.05.2020.Ss.23.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. Tel/faks: (71) 232-60-47, 239-17-83; e-mail: info@dba.uz

Nusratov Umid G'olibovichning 14.00.21 — Stomatologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Buyrak funksiyasi buzilishiga qarab 2-toifa diabetli bemorlarda olib qo'yiladigan tish protezlarining xususiyatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shoh ko'chasi, 1-uy. Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Eshboyev Bezzod Tojiyevichning 11.00.01 — Tabiiy geografiya ixtisosligi bo'yicha "Qashqadaryo viloyati toponimlarini tadqiq etishning tabiiy geografik jihatlari" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.06 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti, Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: ik-geografiya.nuu@mail.ru

Xaitov Elmurod Bekmurodovichning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligidan "Jamiyat ma'naviy yuksalishida innovatsion siyosatning o'rnini" mavzusidagi siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti 511-xonada o'tkaziladi. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: devonxona@nuu.uz, nauka@nuu.uz

Isabayev Maxsad Baxodirovichning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligidan "Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati samaradorligini oshirish mexanizmlari" mavzusidagi siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08. raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti 511-xonada o'tkaziladi. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: devonxona@nuu.uz, nauka@nuu.uz

Berdiev Kabul Raimovichning 05.10.02 — Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyo asosida qurilish konstruksiyalari va materiallarining olovbardoshligi va issiqlikdan himoyalash darajasini oshirish muammolari" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 2-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"v" uy. Arxitektura fakultetining majlislar zali. Tel/faks: (71) 241-10-84, 241-80-00; e-mail: devon@taqi.uz, taqi_atm@edu.uz

Umarov Shodiljon Abdug'ofurovichning 05.09.01 — Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar ixtisosligi bo'yicha "Kompozit armaturalangan egiluvchi to'sinlarning mustahkamlik, bikrlilik va yoriqbardoshligini tadqiq qilish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-iyul kuni soat 12:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"v" uy. Tel/faks: (71) 241-10-84, 241-80-00; e-mail: devon@taqi.uz, taqi_atm@edu.uz

Qilichev Abror Barotovichning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "Amir Temur davlatida ijtimoiy-siyosiy institutlarning ishlash mexanizmlari" (siyosiy tahlil) mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.20/13.05.2020.Ss.23.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-iyul kuni soat 14:00dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. Tel/faks: (71) 232-60-47, 239-17-83; e-mail: info@dba.uz

Toshkent moliya va iqtisod kolleji tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2017-yil 13-iyundagi qaroriga binoan Ashiraliyev Muhammadjon Xolmurod o'g'liga berilgan K № 4876003 raqamli DIPLOM va uning ilovasi yo'qolgani sababli BEKOR QILINADI.



Jizzax Politeknika instituti



Muhtaram ustozlar, qadrli yoshlar!

Sizlarni muborak Qurbon hayiti bilan samimiy qutlaymiz!

Xalqimizga xos bo'lgan insonparvarlik, mehr-oqibat, saxovat va o'zaro hamjihatlik kabi fazilatlarni qaror toptirish davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilgan siyosatning eng ustuvor vazifalaridan biri sifatida diqqat-markaziga qo'yilayotgani hammamizni quvontirmoqda. Eng muhimi, so'nggi besh yilda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida belgilab olingan Harakatlar strategiyasining hayotga jalb etilishiga Sangzor vohasida yagona texnika ta'lim o'chog'i hisoblanadigan Jizzax politeknika institutining faxriylari, izlanuvchan, fidoyi, mehribon professor-o'qituvchilari, ko'p sonli iqtidorli talabalari ham o'zlarining munosib hissasini qo'shmoqda.

Bu sa'y-harakatlar farovonlikni ta'minlaydigan ishlarimizga mazmun va ma'no bag'ishlab turibdi.

Mana shunday g'urur va iftixor tuyg'usi har bir qalbni munavvar etsin.

Yaratganning o'zi barchamizni hamisha sog'-salomat asrasin!

Bayramingiz muborak bo'lsin!

Ezgu tilaklar bilan

Alisher USMONQULOV,
JizPI rektori, texnika fanlari
doktori, professor



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4767. Tirajli 7470.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416



"Marifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriiz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.